

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. TURIZM VA UNDA GID EKSURSOVODLIKNING AHAMIYATI	
1.1. Turizm, uning rivojlanishi va turlari	9
1.2. O'zbekistonning turistik salohiyati va mamlakatda turizm rivoji	15
1.3. Gid-ekskursovod kasbi va unga qo'yiladigan talablar	24
Birinchi bob bo'yicha xulosa	27
II BOB. GID EKSURSOVODLIK MATNLARI XUSUSIYATLARI	
2.1. Gid ekskursionlikda til va nutq xususiyatlari	30
2.2. Matn tushunchasi va gid ekskursionlik matni tasnifi	36
2.3. Gid ekskursionlik matnlarining paralingvistik va lingvistik xususiyatlari	41
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	47
III BOB. GID EKSURSOVODLIK MATNLARINI TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR	
3.1. O'zbek va ingliz tillarida gid ekskursionlik leksikasining etimologiyasi	50
3.2. Gid ekskursionlik matnlarida ekvivalentsiz birliklar tarjimasi	56
3.3. Samarqand tarixiy obidalari haqidagi matnlar tarjimasi qiyosiy tahlili	66
Uchinchi bob bo'yicha xulosa	71
XULOSA VA TAKLIFLAR	73
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	78
ILOVALAR	84

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng asta sekinlik bilan jahon hamjamiyatiga integratsiyalashib bordi: qator nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'ldi, jahon hamjamiyatida o'z fikrini ayta boshladi. Shu bilan birgalikda o'ziga xos va boy madaniyatimiz, ulug'vor tariximiz, ko'hna va navqiron tarixiy obidalarimiz sayyohlarni mamlakatimizga jalb etmoqda. Hozirgi kunda o'zimizdan ham ko'pchilik chet elga sayohatga o'tlanishyapti. Bu globallashuvning jadallashuviga katta sabablardan bo'lib, odamlar hayotining barcha jabhalariga, birinchi navbatda madaniyatga ta'sir o'tkazmasdan qolmayapti. Butun dunyoda turistlarni jalb etish maqsadida ko'plab gazeta va jurnallarda maqolalar nashr etilmoqda, turli xil teleko'rsatuvlar efirga uzatilmoqda va internetga ulkan miqdorda turizm haqida ma'lumotlar joylashtirilmoqda. Ularning ko'pchiligi esa xorijiy tillarda bo'lib, bu o'z o'zidan tarjima borasida ishlarni talab qilmoqda.

Gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilishda, tarjimon fonli ma'lumotlardan iborat bo'lgan "ko'pgina fraziologik birliklarga duch keladi va u ma'lum bir fraziologik birlikni tarjima qilayotganda tarjima tilida uning ma'zmunini beradi (noto'g'ri talqin etmasdan), shu bilan birgalikda o'sha fraziologik birlikning milliy koloritini saqlab qoladi." [15, 118b.] Albatta, asliyatning milliyligini tarjima tilida ko'rsata olish, realiyalarni tarjima qilish murakkab masalalardan hisoblanib, gid ekskursurovodlik matnlari tarjimasiga oid nazariyani ishlab chiqishni talab etadi.

Hozirgi kunda gid ekskursovodlik matnlari tarjimasiga bag'ishlangan ilmiy ishlar sanoqli bo'lib, gid ekskursovodlik matnlari xususiyatlari, bunday matnlarni tarjima qilish usullari, tarjima jarayonida duch kelish mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mavzuning dolzarbligi ham shundan kelib chiqqan bo'lib, mazkur muommolarni o'rganish, ularni ilmiy tahlil qilish, bu borada to'plangan bilim va

tajribalar asosida mavjud muammolarni hal qilishga doir takliflar kiritish magistrlik dissertatsiyasi uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. *Tadqiqotimizning obyekti* gid ekskursovodlik va tarjima sohasi bo'lib, asliyat va tarjima adresatlari reaksiyalarining muqobilligini ta'minlaydigan tarjima jarayoni sanaladi. *Tadqiqot predmeti* Samarqand tarixiy obidalariga oid ingliz va o'zbek tillaridagi gid ekskursovodlik matnlari, turizm, ekskursiyashunoslik, gid ekskursovod, gid ekskursovodlik matnlari tarjimasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, asl va tarjima matni muqobilligiga fonli ma'lumotlarning ta'siri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi gid ekskursovodlik matnlarining o'ziga xos xususiyatlarini, uning lingvistik, paralingvistik jihatlarini o'rganish, bunday matnlarni tarjima qilish masalalarini ko'rib chiqish, tarjima jarayonida duch kelish mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash, ularning yechimini topish, hamda tegishli amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot maqsadi va predmetidan kelib chiqib, quyidagilar ishning hal etilishi kerak bo'lgan vazifalari sanaladi:

1. Turizm atamasiga oydinlik kiritish, turizmning paydo bo'lishi va shakllanishini tavsiflash;
2. O'zbekistonda turizmning rivojlanishi va taraqqiyot yo'lini yoritish, O'zbekistonning turistik salohiyatini ochib berish;
3. Turizm sohasida gid ekskursovodlik kasbiga to'xtalish, gid ekskursovod kasbini tavsiflash, unga qo'yiladigan malaka talablarini bayon etish, gid ekskursovodlikda til va nutq xususiyatlarini ko'rib chiqish;
4. Matn tushunchasini oydinlashtirish, gid ekskursovodlik matnlarini ta'riflash;
5. Gid ekskursovodlik matnlari tarkibini o'rganish;

6. Gid ekskursovodlik mantlarining o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, gid ekskursovodlik matnlarining lingvistik hamda paralingvistik jihatlarini bayon etish;
7. O'zbek va ingliz tillarida turistik leksika tahlilini amalga oshirish;
8. Gid ekskursovodlik matnlarida muqobili yo'q leksika tarjimasini muammolarini ko'rib chiqish;
9. Samarqand tarixiy obidalarini misolida gid ekskursovodlik matnlarini qiyosiy tahlil qilish, taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertatsiya ishida gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilish jarayonida duch kelish mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etish borasida quyidagilar ishlab chiqildi:

- turizm tushunchasi va uning rivojlanish boshqichlari aniqlandi;
- O'zbekistonning turistik salohiyati o'rganildi va mamlakatda turizm rivojlanishi isqtiqbollari aniqlandi;
- turizm sohasida gid ekskursovodlikning ahamiyati ko'rib chiqilib, bu kasbga ta'rif berildi, uning malaka talablari o'rganildi;
- gid ekskursovodlikda til va nutq tushunchalari nazariy tahlil qilindi;
- gid ekskursovodlik matnlarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi;
- o'zbek tilida turizm leksikasining etimologik tahlili amalga oshirildi;
- gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilish jarayonidagi muammolar aniqlandi va ularni hal etishning amaliy tavsiyalari ishlab chiqildi;
- gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilish masalalari o'rganildi;
- ilova tarzida o'zbek va ingliz tillarida parallel gid ekskursovodlik matni yaratildi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Gid ekskursovodlik sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan dunyoning yetakchi olimlaridan B. V. Yemelyanov, Nimit Chovdhary, S. Medlik, Katy McAdam, O. P. Karebina va boshqa ko'plab olimlar o'z ilmiy izlanishlarida gid ekskursovodlik matnlari

tarjimasiga to'xtalib o'tishgan. Shuningdek, hamdo'stlik mamlakatlari olimlaridan G. P. Doljenko, K. V. Kulayev, L. L. Luzyanina, O. A. Surkan, D. V. Sedix va boshqa ko'plab olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida gid ekskursovodlik matnlari xususiyatlari va ularni tarjima qilish to'g'risida o'zlarining ilmiy-amaliy fikr mulohazalarini berganlar. Mamlakatimiz olimlaridan M. O.Toriqulov, Z. Tovboyev, G. Abdusattorova, S. A. Nabiyeva, M. A. Mirzayev, M. T. Aliyevlar turizm, uning rivojlanish bosqichlari, mamlakatimizda turizm taraqqiyoti, gid ekskursovodlik borasida ilmiy ishlar olib borishgan.

Rus ekskursiyashunoslaridan G. P. Doljenkoning “Экскурсионное дело” (Ekskursiya ishi), K. V. Kulayevning “Экскурсионная деятельность: теоретические и методологические основы” (Ekskursiya faoliyati: nazariy va metodologik asoslari), B. V. Yemelyanovning “Экскурсоведение” (Ekskursiyashunoslik) nomli o'quv qo'llanmalarida ekskursiya ta'rifi, ekskursiya tarixi va rivojlanish bosqichlari, gid ekskursovod, unga qo'yiladigan talablar, gid ekskursovodlikda til va nutq tushunchalari va ularning xususiyatlari, ekskursiya marshrutlari va ularni tashkil etish atroflicha ochib berilgan.

Gid ekskursovodlik borasida nazariy ma'lumotlarga qaraganda, amaliy ishlar anchaginani tashkil etadi. Jumladan, L. L. Luzyaninaning “Практикум по устному переводу с русского языка на иностранный (экскурсионное дело)” (Rus tilidan xorijiy tillarga og'zaki tarjima qilish bo'yicha amaliy mashg'ulot (ekskursiya ishlari)) o'quv qo'lanmasida gid ekskursovodlik matni namunalari keltirilgan bo'lib, ularni tarjima qilish vazifa qilib berilgan. Bunga o'xshash adabiyotlar ko'pgina bo'lib, O.A. Surkanning “Ingliz tilidan o'quv qo'llanma” (Turistik komplekslar va mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sohasi uchun)si, D. S. Sedixning “Travelling is exiting” (ijtimoiy-madaniy xizmat va turizm yo'nalishi uchun) metodik qo'llanmasi shular jumlasidan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda uning turistik shaharlariga oid gid ekskursovodlik adabiyotlari ko'plab nashr etilmoqda. Masalan, birgina “Sharq

ziyokori” nashriyoti tomonidan “Amir Temur in world history”, “The Republic of Uzbekistan”, “Khiva-Xiva-Хива”, “Ўзбекистан - Uzbekistan”, “Samarkand – a pocket guide” kabi o’nlab gid ekskursovodlik matnlari nashr etilgan. Lekin gid ekskursovodlik matnlari tarjimasini masalalari ustida shu kungacha yaxlit ilmiy izlanish amalga oshirilmagan.

Tadqiqotda qo’llanilgan metodikaning tavsifi. Bizga ma’lumki, biror nutqni tarjima qilishda tarjima qilinayotgan nutq ona tili bilan solishtirib, qiyoslab tarjima qilinadi. Xuddi shunday ikkita asar, ya’ni, asliyat va tarjima asari bilan ishlaganda qiyoslash metodidan foydalanib undagi o’xshash va farqli tomonlar o’rganiladi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida ham qiyoslash, tahlil qilish va sintaktik jarayonlarni tushuntiruvchi transformatsion metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Turizmga muhim ahamiyat kasb etadigan gid ekskursovodlik borasida ko’plab ilmiy ishlar olib borilgan bo’lsada, aynan gid ekskursovodlik matnlari tarjimasini masalalariga bag’ishlangan tadqiqotlar soni juda kamchilikni tashkil etadi. Tadqiqotimizda gid ekskursovodlik matnlari tarjimasini atroflicha, yaxlit tarzda o’rganilganligi va tegishli xulasalar chiqarilganligi sababli ahamiyatli manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Dissertatsiya ishida berilgan takliflar amaliy jihatdan gid ekskursovodlik matnlari tarjimasini jarayonida to’siq bo’layotgan muammolarni bartaraf etish bo’yicha ilmiy-amaliy ishlarni amalga oshirishga va tashkillashtirishga o’zining munosib hissasini qo’shadi.

Dissertatsiya ishi tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovadan iborat.

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning obyekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, ilmiy yangiligi, mavzu bo’yicha adabiyotlar sharhi, tadqiqotda qo’llanilgan metodikaning tavsifi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, himoya uchun olib chiqilayotgan masalalar, hajmi, tarkibi haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Birinchi bob “Turizm va unda gid ekskursovodlikning ahamiyati” deb nomlangan bo’lib, unda turizm tushunchasi, uning rivojlanishi va turlari, O’zbekistonda turizm taraqqiyoti hamda mamlakatning turistik salohiyati, turizm sohasidagi gid ekskursovod kasbi, bu kasb egasiga qo’yiladigan talablar, gid ekskursovodlikda til va nutq tushunchalari xususiyatlari nazariy adabiyotlar asosida o’rganilgan.

Ikkinchi bob “Gid ekskursovodlik matnlari xususiyatlari” deb nomlanadi. Bu bobda matn tushunchasi ta’rifi asosida gid ekskursovodlik matnlariga oydinlik kiritilgan, gid ekskursovodlik matnlarining lingvistik va paralingvistik xususiyatlari yoritilgan.

Uchinchi bob “Gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilishdagi muommolar” deb nomlanadi. Bunda turizm, ayniqsa, gid ekskursovodlik matnlarida uchraydigan atamalarining etimologik kelib chiqishi tahlil qilingan, ekvivalentsiz birliklar tarjimasi o’rganilgan va Samarqand tarixiy obidalariga oid matnlar tarjimasining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan va bunday matnlarni tarjima qilish usullari ko’rsatilgan.

Dissertatsiyaning xulosa va takliflar qismida gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilish yo’llari haqida yakuniy xulosalar berilgan hamda bir qator takliflar umumlashtirilgan. Umuman olganda, tadqiqot mavzusini yoritishda turli xil chizmalar va jadvallardan foydalanilgan. Dissertatsiya ishida ko’tarilgan mavzu dolzarb ahamiyatga ega bo’lganligi tufayli keyingi izlanishlarni olib borish uchun ham asosiy negiz bo’lib xizmat qiladi.

I BOB

TURIZM VA UNDA GID EKSURSOVODLIKNING AHAMIYATI

1.1. Turizm, uning rivojlanishi va turlari

Ko'p ming yillik tarixdan ma'lumki, odamlar yangi yerlarni o'zlashtirish, kerakli resurslarni izlab topish, savdo-sotiq ishlarini amalga oshirish, diniy ibodatlarini ado etish yoki ilm olish maqsadida dunyo bo'ylab sayohat qilishgan. Bu o'z navbatida dunyo xalqlari o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalarni yuzaga keltirgan. "Turizm va mehmonxona xo'jaligi" bakalavriat yo'nalishi uchun Mirzayev M. va Aliyeva M. tomonidan tayyorlangan "Turizm asoslari" o'quv qo'llanmasida ilk sayohatchilar sifatida quyidagilar sanab o'tilgan: "Ilk sayohatchilar deyilganda ko'z oldimizda ko'hna davrlardagi — bir yerdan ikkinchi yerga ko'chib yurgan ko'chmanchi qabilalar, diniy e'tiqoddagi ziyoratchilar, davlatlararo yurgan va «Buyuk Ipak Yo'li» bo'ylab safarga chiqqan savdogarlar, keyinroq esa mamlakatlar manfaatini himoya qiluvchi davlat elchilari, ilmni maqsad qilib olgan olimlar, allomalar va mutasavvuf, harbiy jabhalarda o'zga hududlarga kirgan jangchilar gavdalanadi". [5, 53 b.] Bu sayohatchilarni turizm ibtidochilari deyish mumkin.

Turizm haqida gapirar ekanmiz, avvalo, turizm o'zi nima, qanday sayohatlarni turizm deb atash mumkin kabi savollarga oydinlik kiritib olish kerak bo'ladi. O'zbek tilining izohli lug'atida turizm so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan:

"TURIZM [fr. tourisme - tour – aylanish, sayr (sayohat) qilish], dunyoni ko'rish, bilish, o'rganish, dam olish maqsadida tashkil etiladigan sayr – sayohat. 2. Organizmni jismoniy chiniqtirish maqsadida uyushtiriladigan jamoaviy yurishlar, safarlar". [57, 195 b.]


Tilimizda yuqorida keltirilgan izohdagi ma'noni ifodalovchi faol so'z bo'lgan "sayohat" so'zi ham mavjud. Ammo turizm atama yoki bo'lmasa soha sifatida qanday ma'noni anglatadi?

O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»gi Qonunida turizm tushunchasiga quyidagi tarzda ta'rif berilgan: «turizm — jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi)». [16, 4 b.] Demak, bu izohdan “turizm” iqtisodiyatdagi atamalardan biri ekanligini hamda turizm turar joyimizdan biror maqsadda boshqa mamlakatga jo'nab ketishimizni anglatishini bilib olamiz.

I. V. Zorin va V. A. Kvartolnovlarning “Turizm iqtisodiyoti” kitobida turizm – bu odamlarning bo'sh vaqtlarida o'z doimiy turar joylaridan boshqa mamlakat yoki o'z mamlakatlari ichida ta'ssurot va dam olish, sog'liqni tiklash, mehmondorchilik, bilim olish yoki kasbiy amaliy maqsadlarida sayohat qilishlari, lekin borgan joylarida pul bilan rag'batlantiriladigan ish bilan shug'ullanmasligi deb tushuntiriladi.

Yuqoridagi muhokama ilmiy rahbarim dots. G'anisher Rahimovning “O'zbekistonda xalqaro turizmning rivoji” (The development of international tourism in Uzbekistan) nomli ilmiy ishida ham o'rta tashlangan. “Turizm dunyoning katta bizneslaridan biri, ammo kishilarning nega safarga o'tlanishi turli sabablarga bog'liq. Shuning uchun, birinchi o'rin biz sayyohning xarakter xususiyatlarini tushunishimiz kerak bo'ladi. Umumiy ma'noda sayyoh - bu dam olish, ta'lim, yoki boshqa shaxsiy sabablar bilan yurtidan tashqarida safarda bo'lgan kishidir”. [19, 5b.] Ilmiy ishga ko'z yugurtirar ekanmiz, safar uyushtirilayotgan joyni tanlab, o'tkaziladigan vaqtni aniqlab, xarajatlarni to'laydigan kishini turist deyish mumkinligini tushunamiz. G'anisher Xudoyqulovich kasallikga davo izlab, yoki ish qidirib, yo bo'lmasa ta'ziya marosimiga kelayotgan o'zga yurt vakillarini turistlar safiga kiritmagan va shu orqali turizm nimaligiga oydinlik kiritgan.

M. Mirzayev, M. Aliyevlar turizm va sayohatni farqlab quyidagilarni yozishadi: “Sayohatlardan hayot faoliyatining alohida jozibador usuli sifatida yangi shakl - turizm ajralib chiqib, u o'ziga xos xususiyatlar va xislatlari bilan tavsiflanadi. Turizmni sayohatlardan ajratib turuvchi asosiy jihati bu uning tashkiliy jihatdan yo'lga qo'yilganligida, maqsadli va ommaviyligidadir”. [5, 64b.]



1-rasm. Turist muomolasi va motivlarning sabab va oqibat bog'lanishlari.

Xulosa qilib aytganda, sayohat va turizm bir - biri bilan o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, ular inson hayoti faoliyatining ma'lum bir tarzini ifodalaydi. Bu - dam olish, aktiv (faol) yoki passiv (nafaol) ko'ngilocharlik, sport, atrof - muhitni anglash, savdo, fan, davolanish va boshqa ko'plab narsalarni qamrab oladi. Biroq, bunda har safar sayohatni boshqa faoliyat turlaridan ajratib turuvchi o'ziga xos harakat - insonning vaqtinchalik boshqa joyga, mamlakatga, qit'aga borishi, uning doimiy yashash joyidan uzoqlashishi - mavjud bo'ladi. Shuni aytish mumkinki, turizm - sayohatning yangi turi, uning alohida hodisasi. Turizm aniq ifodolovchi tavsif va xususiyatga ega. Sayohatning turizmdan asosiy farqi- bu aniq maqsadning mavjudligi.

Yuqorida izohlangan turizmning paydo bo'lishi va rivoji haqida to'xtalamiz. Albatta, o'tmish va hozirgi paytdagi sayohatlar keskin farqlanadi, shu farqlar sababli ham xalqaro turizm shakllandi. “Texnika taraqqiyoti ommaviy turizmning rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. 1830-yilda jahonda birinchi temiryo'l Manchester va Liverpool o'rtasida ishga tushib, u amalda sayohat uyushtirishning vaqt chegaralarini o'zgartirib yubordi. Ilgari haftalab davom etgan sayohatlarni endilikda arzimagan haq to'lab amalga oshirish har bir kishining qo'lidan

keladigan bo'lib qoldi. Temiryo'llar barcha mamlakatlarda misli ko'rilmagan sur'atlarda qurila boshladi. 1833-yilda Rossiyada Cherepanovning birinchi parovozi qurildi. 1842-yilga kelib Angliyada temiryo'l orqali yo'lovchi tashish ko'rsatkichi 23 million kishiga yetdi. AQSHda 1850-yilga kelib 15 ming chaqirim masofali temiryo'llar qurib bitkazilgan. Toshkentda esa birinchi temiryo'l 1899-yil Krasnovodsk — Toshkent va keyinchalik 1905-yili Toshkent — Orenburg yo'nalishida ishga tushirildi”. [5, 63b.]

Bugungi kunda zamonaviy turizm asoschisi deb tan olingan Tomas Kuk birinchilardan bo'lib sayohatchilarning ommaviy safar uyushtirishining foydaliligini anglab yetdi hamda 1843- yilda o'z qavmi uchun dastlabki temiryo'l orqali turni tashkillashtirdi va muvaffaqiyatga erishdi. Kuk 1851-yili mamlakatning barcha burchagidan kelgan inglizlarning Parijdagi ko'rgazmada ishtirok etishini tashkillashtirib, 165 ming kishini olib kelishga musharraf bo'ldi.

Ko'rgazma turlari katta foyda keltirganligi sababli, Kuk Angliyalik turistlarning 1865-yilda Parijga Butunjahon ko'rgazmasiga ommaviy ravishda tashrif buyurishi tashkilotchisi bo'ldi. 1856-yildan boshlab Yevropa bo'ylab turlar odatiy holga aylandi. Kukning turistik agentligi va joylarda uning filiallari tuzildi. Turistik kompaniyaning misli ko'rilmagan muvaffaqiyatga erishganligini Kuk turistlarga taklif etgan katalogdan 8 mingdan ortiq mehmonxonalarning o'rin olganligi ham tasdiqlaydi. 1870-yilda “Tomas Kuk” turistik firmasi mijozlari soni 500 ming kishiga yetdi.

Zamonaviy samolyotlarning ixtiro qilinishi bilan bir hududdan ikkinchi bir hududga yer aylanishi tezligidan tezroq yetib borish imkonini berdi. Natijada sayohatchilar boshqa soat mintaqalariga tashrif buyura oldilar. Kosmik sayohatlarda vaqt samarasi yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Turizm katta biznesga aylandi va qator turlari yuzaga keldi. Turizmdagi turlarni va ko'rinishlarni tasniflashda chalkashliklar mavjud. Bu o'z navbatida turizmdagi haqiqiy turlar xilini aniqlashni ham qiyinlashtiradi, haqiqiy turlarning

qaysilari muhimroq-u, qaysi turlar o'z salohiyati bo'yicha keyinroq turadi, ajratishni mushkullashtiradi.

M.N.Pardayev, R.Atabayev (2007 yil) keltirgan ma'lumotlarida turizm turlari asosan quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi. Bularga:

- turizm turlarini tashkil etish bo'yicha (rejali, rejasiz – o'zboshimcha tashkil etilgan);

- xizmat ko'rsatishi bo'yicha (ichki, milliy, xalqaro);

- maqsadi bo'yicha (salomatlikni tiklash, dam olish, sport musobaqalariga qatnashish yoki sport mashg'ulotlarini o'tkazish, ilmiy va ma'rifiy ekspeditsiya, atrof-muhitni, diqqatga sazovar turistik obyektlarni o'rganish, ziyorat qilish kabilar);

- foydaliligi bo'yicha (iqtisodiy samarali turizm va ijtimoiy samara beradigan turizm) kabi belgilar kiradi. [7, 15b.]

Butunjahon turizm tashkiloti (VTO) esa – turizmning beshta turini istiqbolli yo'nalish deb e'lon qilgan:

1. Sarguzasht turizmi. Bu tur asosan tog' cho'qqilariga chiqish, suv osti kemalarida sayohat qilish va «yerning oxiri»ga sayohat yo'nalishlarida rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda bu turni tog' so'qmoqlari, cho'llar bo'ylab va Orol dengizi havzasiga sayohat marshrutlari bo'yicha rivojlantirish mumkin.

2. Dengiz va suv havzalari bo'ylab sayohat turizmi.

3. Madaniyatni o'rganish turizmi. a) diniy ziyoratgoh turizmi; b) madaniy-tarixiy turizm.

4. Ekoturizm.

5. Mavzuli turizm. a) iqlimni o'rganish; b) hayvonot olamini o'rganish; v) o'simlik dunyosini o'rganish; g) paleontologiyani o'rganish.

Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti «Xalqaro turizm va turizm servisi» kafedrasi o'qtuvchisi I.S.Tuxliyev keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, «turizm turlarni o'ziga xos xususiyatlarini belgilash maqsadida uning muhim tasnifiy

belgilarini aniqlab olish zarur bo‘ladi. Jumladan, geografik belgilari, turistlik oqim yo‘nalishi, safar maqsadi, harakatlanish usuli, turistlarni joylashtiruv vositalari va ishtirokchilar soni bo‘yicha, tashkiliy-huquqiy shakllarini tasniflash maqsadga muvafiqdir.” [8, 28b.]

1-jadval

№	Tasniflanadigan belgilar	Turizm turlari
1	Geografik prinsip bo‘yicha	1.1 Milliy 1.2 Xalqaro 1.3 Ichki
2	Turistik oqimlar yo‘nalishi bo‘yicha	2.1. Kiruvchi 2.2. Chiquvchi
3	Maqsadlar bo‘yicha	3.1. Rekreatsion 3.2. Sog‘lomlashtiruvchi dam olish 3.3. Bilimini oshiradigan dam olish 3.4. Malakaviy ish turizmi 3.5. Ilmiy turizm 3.6. Sport turizmi 3.7. Shop-turlar 3.8. Sarguzashtli 3.9. Ziyorat (haj) safari 3.10. Qo‘msash 3.11. Ekoturizm 3.12. Ekzotik
4	Moliyalashtirish manbai bo‘yicha	4.1. Sotsial turizm 4.2. Tijoriy turizm
5	Harakatlanish usuli bo‘yicha	5.1. Yayov 5.2. Aviatransport 5.3. Dengiz transporti 5.4. Daryo transporti 5.5. Avtoturizm 5.6. Temir yo‘l transporti 5.7. Velosiped transporti 5.8. Ulovlarda 5.9. Aralash
6	Joylashuv vositalari bo‘yicha	6.1. Otellarga, mehmonxonalarga 6.2. Motellarga

		6.3. Pansionatlarga 6.4. Kempinglarga 6.5. Palatkalarga 6.6. Rotellarga 6.7. Botellarga 6.8. Sanatoriylarga 6.9. Flotellarga 6.10. Xostellarga 6.11. Otel-klublarga 6.12. Turbazalarga 6.13. Turistlik uylarga 6.14. Appartomentlar
7	Ishtirok etuvchilar soni bo'yicha	7.1. Individual 7.2. Oilaviy 7.3. Guruhlar bo'lib
8	Tashkiliy shakllari bo'yicha	8.1. Tashkil qilingan 8.2. Tashkil qilinmagan

Boshqa adabiyotlarda turizm turlari va ko'rinishlari haqidagi ma'lumotlar quyidagicha berilgan. Turizm aktiv va passiv turlarga bo'linadi. Turizmning bunday nomlar bilan bo'linishining asosiy sababi, odamning turizm jarayonida harakatlanishi va jadalligi turlarini aniqlash bilan belgilanadi. Katta jismoniy kuch talab qilinadigan va hamma turistlar qatlamiga ham to'g'ri keladigan turizmning aktiv (faol) turlariga - dam olish va sayyohat vaqtichog'lik, sport kabilar kiradi. Bu ma'noda yana ham ajralib turadigani - bu ekstremal turizm turidir. Turizmning passiv (nafaol) turiga esa turizm dasturi yoki turistik sayyohlikning tinchroq va kam kuch sarf qilinadigan, jismoniy zo'riqishlarga xos bo'lmagan turi kiradi. Ular bir maromda dam olishga moslashgan shaxslarga mo'ljallangan o'rganish turizmi bo'lib, turistlardan jismoniy kuch va zo'riqish talab etilmaydi.

1.2. O'zbekistonning turistik salohiyati va mamlakatda turizm rivoji

Respublikamiz turizmning rivojlanishi borasida keng imkoniyatlarga ega. Mamlakatimizning boy tarixi, o'ziga xos madaniyati, navqiron tarixiy obidalari,

tabiiy sharoiti, tog'lari va xushmanzara joylari sayyohlarni o'ziga jalb etib kelmoqda.

“O'zbekiston qulay geografik joylashuvga va turizm bo'yicha ajoyib potentsialga ega.

Tarixan O'zbekiston hududi qadimgi savdo yo'llari kesishgan joy bo'lgan va bu yerda turli mamlakat odamlarining faol aloqa jarayoni amalga oshgan, madaniyatlar bir biridan boyigan.

Respublikaning tabiiy sharoiti turizm rivojlanishi uchun juda qulay bo'lib, u yil davomida sayohlarni qabul qilish imkoniyatiga ega”. [19, 13-14b.]

“Respublika hududida 4mindan ziyod tarixiy yodgorlik mavjud”. [20, 18b.]

O'zbekistonning mavjud turistik diqqatga sazovor joylari jahon turizmining yangi qiziqarli hududlari rivojlanishi uchun asos bo'la oladi.

“O'zbekiston muvaffaqiyatli keng miqyosdagi turistik faoliyat uchun regional hamda transmilliy darajada unikal obyekt hisoblanadi. Regional va xorijiy ekspertlar O'zbekistonning turistik imkoniyatlarini yuqori baholab, markaziy Osiyo mintaqasida uni birinchi o'rin, hamda eng yuqori turistik imkoniyatli 20 ta davlatlar qatoriga kiritishdi. Respublikaning rekreatsion imkoniyati tabiiy-iqlimiy sharoit, flora va fauna, mineral resurslar tufayli boy va xilma-xildir. U o'z ichiga o'rmon xo'jaliklari, milliy parklar, qo'riqxonalar, dam olish zonalari, turistik sog'lomlashtirish komplekslari, mineral manbalar, turistik baza va bolalar ekskursion – turistik stansiyalarini hisobga olib, turizmni rivojlantirish va davlat byudjeti daromadining asosiy manbalari bo'lishiga asos bo'lishi mumkin”. [9, 12b.]

O'zbekiston, hududiylik orqali globalizatsiya maqsadlarini amalga oshirishda, xalqaro turizm imkoniyatlarini keng ishlatishda dunyo oldida yosh mustaqil davlat sifatida emas, balki boy merosxo'r va hozirda ko'pgina tarixiy haykal hamda ko'pgina asrlar davomida tarixiy chorraha vazifasini o'tagan, 2000 yildan ortiq qadimgi tarix regionining davomchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Bu qadimiy hududlar ko'p asrlar mobaynida siyosiy-tarixiy burilish bo'lib xizmat qilgan va hozirda o'tgan davrlardan boshlab tarixiy yodgorliklar joylashgan hudud hisoblanadi.

“Bu hududda 2 ta mashhur tarixiy - madaniy hududlar Sug'diyona va Baqtriyalarning mavjudligi, hamda O'rta Osiyoni Saljuqiylar tomonidan intensiv kolonizatsiya qilish davrida ko'pgina qal'a va shaharlarning qurilganligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari bizning eramizgacha III asr o'rtalaridan Yunon -Baqtriya davlati paydo bo'lishi bilan O'rta Osiyo tarixida yangi eraning boshlanishiga hamda II asr boshlarida ko'chmanchi qabilalarning 5 ta katta guruhlariga birlashuviga ham guvohlik beradi. Birlashuv Kushon podsholigi ta'siri ostida o'tgan. Kushon podsholigini hind subkontinentigacha qamrab olgan edi va tarixda Rim Imperiyasi, Parfiya, Xom Xitoyi kabi yirik davlatlar qatorida o'rin egallagan edi.

Xozirda ham Amur Temur davridan qolgan ma'naviy, tarixiy-ma'daniy va arxitekturaviy meroslar ulkan va beqiyosdir.

Asosiysi diniy - siyosiy adabiyotga ega bo'lgan faylasuf va din peshvolari kabi tarixiy shaxslar dunyoga kelgan hamda ular shahar, mamlakat, sivilizatsiya tarixida mangu qoldilar. Aynan shu joydan katta karvon yo'li o'tgan bo'lib, bu yerda tovarlarning, ilmiy bilimlarning, madaniyatlarning, hunarmandchilikning jadal va keng o'zaro almashuvi amalga oshirilgan.

Xalqaro turizm O'zbekistonni dunyoga faqatgina boy tabiiy resurslar potentsiali bilan tanitibgina qolmay, balki o'lkaning unitilib ketayotgan tarixiy negizini qayta tiklashga yordam beradi hamda O'zbekistonning qadimgi shaharlari gullab - yashnagan madaniy, hunarmandchilik va savdo markazlari bo'lganligidan va g'arbdan bir qator tadqiqotchi hamda sayohatchilarni o'ziga jalb etganini anglatadi.

Markaziy Osiyo mintaqasining yuragida joylashgan mustaqil O'zbekiston ushbu mintaqadagi mustaqil davlatlar orasida o'zaro bog'lovchi bo'gin vazifasini ham bajarishi mumkin. Bugungi kunda respublikani xalqaro turizmning mintaqaviy markaziga aylantirish uchun ham transmilliy darajada ham katta investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha shart - sharoitlar yaratilgan. Respublika Markaziy Osiyo hududida foydali geostrategik sharoitga egadir. Qadimgi davrdan hozirgi O'zbekistonning yerlaridan mashhur «Ipak Yo'li» kabi savdo yo'llari o'tgan bo'lib, tashqi aloqalar jadal sur'atlarda o'sib borgan hamda turli madaniyatlar natijasida o'zaro boyib borish yuz bergan. 18 asr mobaynida (Eramizning XVI asriga qadar) Xitoyning Slan shahridan O'zgand (hozirgi O'zgan) orqali o'sha davrlarda Davon xonligi deb nomlanuvchi Farg'ona vodiysiga, Shosh (Toshkent oazisi) Usturashan (Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining hududiy qismi), Sug'diyona mamlakati (Samarqand va Buxoro shaharlari orqali), Amul shahri (Xozirgi Chorju) va undan so'ng Eron hamda Mesopotamiya kabi mamlakatlar orqali O'rta Yer dengiziga savdo karvonlari qatnagan. «Buyuk Ipak Yo'li» qatnovida ko'plab karvonsaroylar qurilgan yangi shaharlar barpo etilgan, sug'orish kanallari, hunarmandchilik markazlari ilmiy-ma'naviy markazlar (madrassa, kutubxona, haramlar va muhtasham saroylar) barpo bo'lgan». [14, 85b.]

«Buyuk Ipak Yo'li» uning oralig'ida joylashgan qadimgi shaharlarning rivojlanishiga hamda mamlakatlararo savdo va madaniy aloqalarining katta ta'sir ko'rsatgan.

Yaqin va O'rta sharqning o'zaro aloqalari natijasida bu yerda o'ziga xos noyob qit'alararo madaniyat shakllandi. Mashxur arxitekturaviy yodgorliklar va ustalar yasagan buyumlar faqat iqtisodiy ko'rsatgich bo'libgina qolmay, balki falsafaning bir ko'rinishi, qolaversa, dunyoni va boshqa xalqlar madaniyatini anglash va o'rganishga bo'lgan harakat ham edi. O'zining bir necha ming yillik ildiziga ega bo'lgan O'zbekiston hozirgi kunda o'zining dunyoga mashhur va jahon ilm - fani taraqqiyotiga salmoqli hissasini qo'shgan Ibn-Sino (Avitsenna) Beruniy,

Navoiy, Ulug‘bek kabi bir qator mutafakkirlari bilan dunyo hamjamiyatiga qadimiy madaniyatning tanituvchisi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

“Tarixdan ma’lumki, Markaziy Yevroosiyoning quruqlikdagi asosiy transport aloqalari O‘zbekiston hududida kesishadi. Bu narsa O‘zbekistonga ushbu asosiy yo‘nalishlardan birini tashqi iqtisodiy faoliyat sifatida Yevroosiy iqtisodiy va madaniy ko‘prigini barpo etishga xizmat qiladi va turli investitsiya, texnologiya, madaniy qiymatliklarning oqimiga (harakatiga) asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston transport infrastrukturasiga ega bo‘lib, iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar bilan hamkorlikda asosiy transport yo‘llariga shuningdek, dengiz yo‘liga ham chiqishi mumkin. Respublika avtomobil va temir yo‘llari orqali Eron, Turkiya, Markaziy Osiyo davlatlariga Afg‘oniston hamda Eron orqali esa Arab dengizi va Fors ko‘rfazi portlariga chiqib, amaliy jihatdan xalqaro turizmning umumiy tizimida asosiy bo‘g‘inga aylanishi mumkin”. [14, 15b.]

Turistik resurslar ko‘limiga insonning turistik ehtiyojlarini qondiruvchi shartlar sifatida tabiat komponentlarning birikmasi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va madaniy boyliklar kiradi. Turistik resurslarning maxsus (xarakterli) xususiyatlariga quyidagilar kiradi: yaxlitlik, dinamikaviy, sig‘im, loyqlik, foydalilik, jalb qiluvchanlik. Turizmni aylanma va ekspluatatsiyaga yo‘naltirilishning obykti sifatida turistik xo‘jaliklarni turistik resurslar bilan rivojlanishi uchun bir qator muayyan hududlar ko‘rib chiqiladi.

Turistik xo‘jalik o‘z ichiga umummillat salohiyati tabiiy resurslar, tarixiy, madaniy, arxitektura va boshqa joylardan foydalanishni oladi.

“Rekratsion resurslar tushunchasi «sayyohlik resurslar» tushunchasini to‘ldiradi va kengaytiradi. U o‘z ichiga tabiat komponentlarini, ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlar va madaniy boyliklarni oladi. Ular xuddi inson ehtiyojlarini sog‘lomlashtiruvchi sharoit sifatida namoyon bo‘ladi.

Sayyohlik resurslarini quyidagilarga bo‘lish mumkin:

-tabiiy sayyohlik resurslari (qiymat, mahalliylik, suv resurslari, relyef, g'orlar, mineral va bolneologik manbalar, o'simlik va hayvonot olami, milliy parklar);

-tan olingan resurslar – madaniy, tarixiy, arxeologik, etnografik obyektlar (muzeylar, ko'rgazmalar, teatrlar, arxeologik, tarixiy o'zgarishlar);

- ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlar va resurslar (hududning geografik holati, aloqaliligi, uning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasi, zamonaviy va kelajakda hududiy xo'jalikni tashkil etish, ijtimoiy infratuzilma, aholi ijtimoiy –demografik tuzilmasi, mehnat resurslari transport aloqalarining rivojlanishi darajasi)”. [14, 85b.]

Sayyohlik resurslarining maxsuslashganligini va o'ziga xosligi kabi xususiyatlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Sayyohlik obyektlarining o'ziga xosligi jahon miqyosida alohida ahamiyat kasb etadi. Samarqand, Buxoro va Xivadagi tarixiy yodgorliklar, ma'naviy boyliklar jahonning ko'p mamlakatlarida mashhur.

Bu shaharga tashrif buyuruvchilar soni hozirda Butun jahon sayyohlik firmasi ko'rsatishicha, 10 mln. kishini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasiga kelayotgan sayyohlar asosan qaysi maqsadlarga ko'ra tashrif buyurayotganliklari quyida keltirilgan jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval

Sayyohlarning O'zbekistonga tashrif buyurishdan asosiy maqsadlari.									
	Ish yuzasi dan	O'qish, o'rgani sh	Ish	Savdo -sotiq	Dam olish, ta'til, bo'sh vaqt	Qarindosh larga tashrif buyurish	Sog'lom-lashtirish	Diniy, ziyo-rat maqsa dida	Bosh qalar
Jami	87	45	4	75	1422	200	340	391	126
shu bilan bir qatorda turizm turlari bilan:									
Kiruvchi turizm	43	7	1	21	264	76	9	8	26
Chiquvchi	25	25	0	25	152	45	14	149	15

turizm									
Ichki turizm	19	13	3	39	1006	79	317	234	85
Rezident	44	38	3	54	1158	124	331	383	100
shu bilan bir qatorda turizm turlari bilan:									
Chiquvchi turizm	25	25	0	25	152	45	14	149	15
Ichki turizm	19	13	3	29	1006	79	317	234	85
Resident bo'lmagan	43	7	1	21	264	76	9	8	26
shu bilan bir qatorda turizm turlari bilan:									
Kiruvchi turizm	43	7	1	21	264	76	9	8	26

Manba: O'zbekiston Respublikasi statistik ma'lumotlar bo'yicha davlat qo'mitasi.

Ushbu ma'lumotlar 2011 yilning 4-iyunidan to 1-iyulgacha bo'lgan vaqt oralig'ida O'zbekistonga kiruvchi turizmga chet ellik fuqorolar – 455 kishi, chiquvchi turizmga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari – 450 kishi, ichki turizmga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari – 1785 kishi anketa so'rovlarida qatnashdi va tahlil natijalariga asoslanib tuzildi.

Mavjud sayyohlik resurslaridan xizmat ko'rsatishning yuqori darajasi kompleksida oqilona foydalanish O'zbekistonga sayyohlarning kelishini oshiradi. Bu vaqt davomiyligiga qarab, agar mehmonlarga qo'shimcha xizmat ko'rsatish va hordiq olish industriyasi rivojlangan bo'lsa 3-4 kundan 7-8 kunga cho'zilishi mumkin.

Samarqand - dunyodagi qadimiy shaharlardan biri. Bu shahar Vavilon, Afina shaharlari bilan tengdoshdir. Samarqand haqidagi dastlabki taassurotlar bizning eramizgacha IV asrga kelib taqaladi. Shu vaqtda Samarqand “Marakanda” nomi bilan mashhur bo'lgan, shaharni saqlovchi juda katta devorlari bo'lgan. Shahar O'rta Osiyoning tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Eng asosiysi uning geografik jihatdan qulay joylashganligidir. U Zarafshon vohasining serhosil va o'zlashgan yerlarida, «Buyuk Ipak Yo'li»da (Xitoydan Vizantiyaga olib boradigan yo'l) joylashgan.

Zarafshon vohasi kenglik va tog'lar to'plamiga to'g'ri kelganligi uchun, bu yerlar aholining to'planish joyiga, tovar ayriboshlash, o'troq va ko'chmanchi xalqlar savdo markaziga aylanishiga sabab bo'ldi. Samarqandda yashab o'tgan buyuk kishilar yodgorliklari tufayli muzey shahar sifatida xizmat qildi. Avvalam - bor, ular orasida Shohi Zinda, Amir Temur maqbarasi, Bibi-Xonim masjidi, Registon maydoni, Ulug'bek observatoriyasi, Sherdor kabilarni esga olish shart. Xorijiy sayyohlarni qadimda buyuk kishilarning yuqori darajadagi ustaligi va badiiy talanti lol qoldiradi.

Buxoro ham Samarqand kabi qadimgi me'moriy yodgorliklarga boy. Bu yodgorliklar gap-so'zsiz xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb qiladi va jahonga mashhurligini yengib kelgan. Bu erda 140 ga yaqin me'moriy yodgorliklar saqlanib qolgan. Buxoroda o'rta asrning mashhur shoirlari Firdavsiy, Rudakiy, jahonga mashhur ilmiy ensiklopedist Abu Ali Ibn Sino (Avitsenna) kabilar yashab ijod qilishgan.

Minorai Kalon 900 yil oldin qurilgan mashhur me'moriy yodgorliklar orasida eng balandi hisoblanadi.

Buxoro markazida Ark qal'asi joylashgan. Bu qal'a eng qadimiyydir. Boshqa yodgorliklar ham katta qiziqish uyg'otadi. Bularga Chor-Minor madrasasi, Bolahovuz masjidi, Abdulazizxon madrasasi, Mir-arab madrasalari kiradi.

Xivada saqlanib qolgan binolar, inshootlar ham xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Shaxarning eng zo'r yodgorliklari - bu Ichanqal'a va Dishon qal'adir. Bular shaharning 2 qismini tashkil etadi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonning qadimiy shaharlarini perspektiv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni asosiy yo'nalishi bo'lib sayyohlik biznesi infratuzilmasi tuzilmagan holda zich rivojlantirish va shakllantirish hisoblanadi.

Shuningdek Toshkentda qadimiy yodgorliklarni saqlovchi muzeylar mavjud.

Xorijiy sayyohlar Davlat badiiy muzeyida butun dunyoda nomlari mashhur kishilarning yozma manbalari bilan tanishishi mumkin.

Poytaxtning eski qismida haqiqiy sharqona bozor mavjud. Bu yerda o'z ishlari ustalarining turli ijodlarini sotib olish mumkin. Bozorga yaqin joyda O'rta Osiyo gavhari - Boroqxon Madrasasi joylashgan.

Ko'plab mamlakatlarda turizm daromad olishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda ham turizm infratuzilamasi shakllantirildi hamda istiqbolli rivojlanish strategiyalariga ega.

Samarqand davlat iqtisodiyot va servis institutining O'zbekistonda turizmni rivojlantirish borasidagi ilmiy ishlariga tayangan holda, respublikada turizm sohasini yanada rivojlantirish va bu sohadan yuqori daromad olish uchun quyidagi bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni sanab o'tamiz:

- mehmonxonalar soni va sifatini oshirish;
- restaranlar va ovqatlar turi hamda xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish;
- resurslardan samarali foydalanish uchun kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- zamonaviy turistik komplekslarni bunyod etish;
- xorijiy sarmoyani jalb etish;
- yirik xorijiy tur firmalar bilan turistik xizmat ko'rsatishning yangi shakllarni yo'lga qo'yish;
- milliy xususiyat va milliy an'analarni e'tiborga olgan holda reklama va targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish". [4, 3b.]

Jahon turizmi hamda turistik biznesni rivojlantiruvchi kuch yuqori daromad olishgina emas, balki insoniyatni jahon ma'naviy boyliklarini bilishga intilish, jahon turizmining ahamiyatiga molik joylari tabiiy, tarixiy-madaniy, ruhiy, milliy-etnografik memoriallarini ko'rish va o'rganishdan iboratdir.

1.3. Gid ekskursovod kasbi va unga qo'yiladigan talablar

Ekskursovod kasbi muayyan ko'nikmalar mavjudligini talab etadi. Mazkur ko'nikmalar ekskursovodga o'z bilimini kerakli darajada jamlab, shakllantirib, keng ommaga yetkazish imkoniyatini beradi. Har bir ekskursovod kasbini tanlagan xodim quyidagilarga ega bo'lishi kerak: zarur material tanlay bilishi, materialni o'rgana bilishi, muayyan mavzuga ekskursiya individual matnini tayyorlay bilishi, metodik ishlanma yarata bilishi, amaliyotda metodik usullardan foydalana bilishi, «ekskursovod portfeli» materiallarini qo'llashi, o'z bilim sohasidagi ekskursovodlar ekskursiyalarini tinglab, ularga qo'ldan kelgancha yordam berishi, o'lka ekskursion imkoniyatlarini targ'ib etishda qatnashishi.

Amaliy bilim va ko'nikmalar, ekskursovodning metodik ishda qatnashishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi, metodik seksiya yoki metodik kabinetga rahbarlik qilishi, ekskursovodlarni, turistik guruhlar va agentliklari rahbarlari, tayyorlash va malaka oshirishi kurslarida dars berishiga imkoniyat yaratadi. Amaliy bilim va ko'nikmalarga egalik, ekskursovod kasbiy mahorati mustahkam poydevoridir.

Ekskursovodlar professional mahorati oshishining asosiy yo'nalishlaridan biri spetsializatsiyadir. Shuni ham aytib o'tish joizki, ko'pchilik holatlarda kasb va mutaxassislik tushunchalari adashtirilishi sababli, mazkur ikki atama mazmun – mohiyatini aniqlab olishimiz zarur.

“Kasb – muayyan miqdordagi bilim va ko'nikmalarga egalikni talab etuvchi kasbiy faoliyat formasidir. Mutaxassislik – muayyan kasb doirasidagi faoliyat turi. Masalan, kasb – vrach, vrach mutaxassisligi – terapevt, xirurg, nevropatolog, stomatolog va boshqalar. Kasb – asosiy faoliyat turi, mutaxassis atamasi, muayyan kasb doirasidagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasidir. Boshqacha qilib aytganda - bu muayyan mutaxassislikka ega bo'lgan kasb egasidir”. [33, 182b.]

Yangi ekskursovodlarni tayyorlash jarayoni masalasi – mutaxassislarni professional – ekskursovodlar etib tayyorlashdir, ya'ni har – bir mutaxassisga ekskursovod kasbi zarur bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishiga yordam berishdir. Ishni shu darajada tashkillashtirish kerakki, ekskursiya tashkilotiga kelgan xodim, o'z mutaxassisligini saqlabgina qolmay, balki uni rivojlantira ham bilsin, ya'ni, unga ekskursion faoliyatni amalga oshirishga yordam berayotgan bazasini mustahkamlash imkoniyatini bersin. Tarix o'qituvchisi, ekskursovod bo'lgach, tarix mavzulariga oid ekskursiyalarni yaxshi o'tkaza olishi kerak. Unga tabiat bo'ylab ekskursiya uyushtirishni tashkillashtirishni yuklash noto'g'ri bo'ladi. bunday ekskursiyani tashkillashtirish, biologiya bo'yicha mutaxassisga yuklatilishi to'g'ri bo'ladi.

Ekskursion tashkilotlar va davlat muzeylarida, mutaxassislikka yo'naltirish keng ommalashgan. Uning asosida ekskursovodlarning tematik seksiyalari yaratilgan: tarixiy, adabiy, tabiatshunoslik, ishlab – chiqarish va boshqalar. Marshrutlarda ekskursovod – mutaxassislar ishi ekskursantlar tomonidan yuqori baholanmoqda.

Kurslarni tugatgach yoki mustaqil tayyorlagarlikdan so'ng ekskursion tashkilotlarga kelyotgan barcha xodimlar bir – necha guruhlariga ajratilishi mumkin. Bir - xil xodimlar o'qish davomida tayyorlangan bir yoki bir – necha mavzularda ekskursiya o'tkazishlari mumkin, ular mustaqil ravishda o'tkazilayotgan ekskursiyalar mavzularini kengaytirishga harakat qilishmaydi. Ekskursovodlarning boshqa guruhi uchun, ishning birinchi yillari, asosiy mavzuni qidirishga bag'ishlanadi, va bu mavzu odatda, olingan mutaxassislik doirasidan chiqmaydi. Shunday mavzuni tanlagach, ular bor kuchlarini uni rivojlantirishga qaratishadi, o'z mutaxassislik mahoratlarini oshirishadi. Ekskursovodlarning uchinchi guruhi – istalgan mavzuni olaverishadi va birinchi besh – olti yil ichida tajribalari ro'yxatida o'zaro bog'liq bo'lmagan ekskursion mavzularga ega

bo‘lishadi. Ular tomonidan o‘tkaziladigan ekskursiyalar, odatda, o‘rtacha darajada o‘tkaziladi.

“Kasb muvaffaqiyati – odatda kasbga nisbatan bildiriladigan hurmat bilan baholanadi. Ekskursovod kasbi katta hurmatga ega, chunki bu kabi mehnat faoliyati noan’anaviy bo‘lib, o‘ziga xos, intellektualligidadir. Kasbning ijtimoiy mavqei, ekskursovod faoliyati muhimligida bo‘lib, uning madaniy – tarbiyaviy ishlardagi o‘rni alohidadir. Mazkur kasbni tanlayotgan yoshlarni, boshqa odamlar bilan muloqotda bo‘lish, qiziquvchan auditoriya e‘tiborida bo‘lish, o‘z faoliyati bahosini har kuni olish, ekskursantlardan har kuni rahmat eshitishga qiziqishadi”. [33, 184b.]

Ekskursovod professional mahorati va kasb mavqei – o‘zaro bog‘liq tushunchalardir. Ammo shuni e‘tiborga olish lozimki, ekskursovod kasbining ma’naviy mavqei, muayyan ekskursovod shaxsiga avtomatik ravishda o‘tavermaydi. Shaxsning mavqei kundalik faoliyatda har kuni tekshiriladi va ekskursovodning kollektivdagi, ish joyidagi, asosan esa marshrutdagi - guruhdagi amaliy faoliyati bilan tasdiqlanib, bevosita shu yerning o‘zida asosiy professional mavqeyi bo‘lgan asosiy va aniq auditoriya demonstratsiyasi amalga oshadi.

Ekskursion mavzuni qabul qilish tovush va tasvir qatoriga asoslangan. Tovush qatori manbayi ekskursovod, ya’ni uning nutqidir. “Ekskursantlarga nisbatan, ekskursovod quyidagi pozitsiyalardan chiqishi mumkin:

- Informator sifatida, u ekskursantlarga muayyan voqea haqida, unga nisbatan o‘z munosabati, boshqa voqealarning unga bog‘liqligini, uning kelib – chiqish sabablarini yoritib o‘tirmay aytib berishi;
- Kommentator sifatida – kuzatilayotgan ob’ektlar haqida xabar bera turib, ularni keltirib chiqargan hodisalarni ham yoritib beradi;
- Hamsuhbat sifatida – obyektlarni ko‘rsata turib, ekskursovod hamsuhbatlik ham qiladi. Bunda qiziq suhbat yuzaga kelib, bunda aytib berilayotgan materialga nisbatan ekskursantlarning ham reaksiyasi kuzatiladi,

informatsiyaning savol – javob formasi qo‘llaniladi. Ekskursovod, eshituvchilar reaksiyasi, ularning savollaridan kelib chiqqan holda, hikoyasiga qo‘shimchalar kiritib borishi mumkin;

- Maslahatchi sifatida – ekskursovod ko‘rilganlarga izoh berib, uni to‘g‘ri qabul qilishga maslahat beradi, ya‘ni ekskursantlarni to‘g‘ri xulosa chiqarishga yetkazadi;

- Emotsional lider sifatida – ko‘rsatilayotgan obyektlar va ular bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarni tahlil etadi, ko‘rib chiqilayotgan muammolarga baho beradi, ekskursantlar bilan o‘z fikrlari bilan bo‘lishadi, ko‘rilayotgan ob‘ektlar va hodisalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Ekskursiya o‘tkazilishi davomida, notiqlik san’atining quyidagi beshta formasi qo‘llaniladi:

- so‘z yoki nutq, muayyan mavzudagi qisqa og‘zaki nutq;
- doklad, muayyan mavzuda ommaviy nutq bo‘lib, keyingi muhokamaga mo‘ljallangan tahliliy materialga ega;
- referat – masala mazmuni yuzasidan qisqa chiqish bo‘lib, fan, adabiy, arxiv, va boshqa manbalar tahliliga asoslanadi.
- leksiya – muayyan mavzu yoritilgan ommaviy nutq;
- og‘zaki nutqning kichik formalari – replika (rozilik, qarshilik, fikr bildirish), notiqning nutqiga nisbatan fikr bildirish, chiqish davomida bildirilgan fikr, ritorik savol, savolga to‘g‘ridan – to‘g‘ri javob”. [33, 189b.]

Istalgan, yaxshi tayyorlanib o‘tkazilgan ekskursiya, notiqlik san’ati formalari sintezidir.

Birinchi bob bo‘yicha xulosa

Gid ekskursovodlik haqida gapirar ekanmiz, turizm haqida to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi. Turizm atama sifatida odamlarning bo‘sh vaqtlarida o‘z

doimiy turar joylaridan boshqa mamlakat yoki o'z mamlakatlari ichida ta'surot va dam olish, sog'liqni tiklash, mehmondorchilik, bilim olish yoki kasbiy amaliy maqsadlarda sayohat qilishlari, lekin borgan joylarida pul bilan rag'batlantiriladigan ish bilan shug'ullanmasligini anglatadi. "Sayohatlardan hayot faoliyatining alohida jozibador usuli sifatida yangi shakl - turizm ajralib chiqqan bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlar va xislatlari bilan tavsiflanadi. Turizmni sayohatlardan ajratib turuvchi asosiy jihat bu uning tashkiliy jihatdan yo'lga qo'yilganligida, maqsadli va ommaviyligidadir." [5, 64b.]

Turizm katta biznesga aylandi va qator turlari yuzaga keldi. Turizmdagi turlarni va ko'rinishlarni tasniflashda chalkashliklar mavjud. Bu o'z navbatida turizmdagi haqiqiy turlar xilini aniqlashni ham qiyinlashtiradi, ham haqiqiy turlarning qaysilari muhimrog'u, qaysi turlar o'z salohiyati bo'yicha keyinroq turadi, ajratishni mushkullashtiradi.

Respublikamiz turizmning rivojlanishi borasida keng imkoniyatlarga ega. Mamlakatimizning boy tarixi, o'ziga xos madaniyati, navqiron tarixiy obidalari, tabiiy sharoiti, tog'lari va xushmanzara joylari sayyohlarni o'ziga jalb etib kelmoqda.

"Regional va xorijiy ekspertlar O'zbekistonning turistik imkoniyatlarini yuqori baholab, markaziy Osiyo mintaqasida uni birinchi o'rin, hamda eng yuqori turistik imkoniyatli 20 ta davlatlar qatoriga kiritishdi. Respublikaning rekreatsion imkoniyati tabiiy-iqlimiy sharoit, flora va fauna, mineral resurslar tufayli boy va xilma-xildir. U o'z ichiga o'rmon xo'jaliklari, milliy parklar, qo'riqxonalar, dam olish zonalari, turistik sog'lomlashtirish komplekslari, mineral manbalar, turistik baza va bolalar ekskursion – turistik stansiyalarini hisobga olib, turizmni rivojlantirish va davlat byudjeti daromadining asosiy manbalari bo'lishiga asos bo'lishi mumkin." [9, 12b.]

Jahon turizmi hamda turistik biznesni rivojlantiruvchi kuch yuqori daromad olishgina emas, balki insoniyatni jahon ma'naviy boyliklarini bilishga intilish,

jahon turizmining ahamiyatiga molik joylari tabiiy, tarixiy-madaniy, ruxiy, milliy-etnografik memoriallarini ko'rish va o'rganishdan iboratdir. Bu jarayonda gid ekskursovod faol ishtirok etadi.

Har bir ekskursovod kasbini tanlagan xodim quyidagilarga ega bo'lishi kerak: zarur material tanlay bilishi, materialni o'rgana bilishi, muayyan mavzuga ekskursiya individual matnini tayyorlay bilishi, metodik ishlanma yarata bilishi, amaliyotda metodik usullardan foydalana bilishi, «ekskursovod portfeli» materiallarini qo'llashi, o'z bilim sohasidagi ekskursovodlar ekskursiyalarini tinglab, ularga qo'ldan kelgancha yordam berishi, o'lka ekskursion imkoniyatlarini targ'ib etishda qatnashishi.

“Ekskursantlarga nisbatan, ekskursovod quyidagi pozitsiyalardan chiqadi:

- informator sifatida;
- kommentator sifatida;
- hamsuhbat sifatida;
- maslahatchi;
- emotsional lider.”

II BOB

GID EKSURSOVODLIK MATNLARI XUSUSIYATLARI

2.1. Gid ekskursovodlikda til va nutq xususiyatlari

Til va nutq kabi o‘zaro og‘liq bo‘lgan tushunchalarni adashtirmaslik juda muhimdir. Til – muayyan sharoitlarda namoyon bo‘ladigan imkoniyatdir, masalan, fonetik, leksik, grammatik qoidalarni bilish, boshqa odamlar bilan muloqot davomida kelisha olishlik. Til axborotni saqlash va uzatish o‘ziga xos ijtimoiy vositasi hamda inson harakatlarini boshqara olishlikdir.

Nutq – til imkoniyatlari realizatsiyasi, odamlar orasidagi muloqot, tovushli va yozma formadagi (shu jumladan xayoliy fikrlash ham) vaqt doirasida kechadigan muayyan so‘zlashuvdir.

Nutqda til imkoniyatlaridan foydalanish, ekskursovodga muayyan mavzudagi bilimlarini namoyon etishga imkoniyat yaratadi. Nutq tushunilishi, uning aniqligi qator omillarga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni so‘zlar, iboralar tuzish va boshqalar.

“Nutq ichki va tashqi turlarga bo‘linadi. Tashqi nutq kommunikativ mazmunga ega bo‘lib, uning mazmuni boshqa odamlar tomonidan tushunilishiga qaratiladi. Ekskursovod hikoyasi – tashqi nutq namunasi bo‘lib, uning vazifasi insonlar ongi va faoliyatiga ta’sir o‘tkazish, ularga aniq obyekt va hodisalar to‘g‘risida muayyan axborotni yetkazish, va bu axborot ekskursantlar ongida to‘g‘ri iz qoldirishiga erishishdir. Bilimlarni yetkazish va haqiqat aksi – tilning ikki asosiy funksiyasidir. Ekskursiyada nutqning birinchi funksiyasi – auditoriya bilan muloqot qilish davomida, bilimlar va hissiyotlarni izhor qilishdir. Istalgan mavzudagi axborot ikki qismga bo‘linadi:

- hikoyalardagi insonlar harakatlari, tabiat hodisalari, tarixiy voqealar, qismlar, obyektlar nomlanishlari;

- ularning mohiyati boshqa obyekt, hodisalar, voqeliklarga nisbatan aloqadorligi”. [32, 62b.]

Ichki nutq –auditoriyaga uzatilishi lozim bo‘lgan fikrlarning avvalroqdagi shakllanishi. Inson, muayyan predmet haqida fikr yuritar ekan, bu borada o‘zi bilan o‘zi ichki dialog yuritadi. Ichki muloqot yordamida, fikr yuritiladi, unda sxema, obraz, jadval kabi yordamchi vositalar qo‘llaniladi. Ichki nutq inson tomonidan ilgariroq olingan bilimlarga tayanadi. Ekskursovod uchun, ichki nutq ekskursiya umumiy mazmuni yoki uning bir qismi ichki fikr almashinuvi formasiga ega.

Har bir ekskursovod, ichki nutq imkoniyatlaridan keng foydalana bilishi lozim, chunki u mohiyatiga ko‘ra insonning o‘z-o‘zi bilan amalga oshirayotgan muloqoti bo‘lib, uning yordamida inson u yoki bu bilim olish vazifasini amalga oshiradi. Agar tashqi nutq tayyor, mantiqan to‘g‘ri shakllantirilgan fikrlarning izhori bo‘lsa, ichki nutq – tayyorlov jarayoni bo‘lib, uning davomida inson o‘zi bilan o‘zi muloqot qilish orqali, inson yangidan yangi fikrlarni shakllantiradi, fikrlarni aniqlashtirib oladi.

Ekskursiya davomida ekskursovod nutqning har ikala turidan foydalanadi – ichki nutq, tashqi nutqni tayyorlab boradi, ekskursant esa ekskursovod ma’lumotlarini o‘zlashtirish davomida faqatgina ichki nutqdan foydalanadi. Bu olingan bilimlarni yaxshiroq tushunib, eslab qolish, ekskursovod fikrlari bilan rozi bo‘lish, uning nuqtayi nazarini qabul qilishga yordam beradi. Ekskursiyadagi bunday holatni yashirin dialog metodik usuli deb ham atashadi, bu holat ekskursantga, ochiq bahsga kirishmay turib, talqin etilayotgan material bo‘yicha to‘g‘ri xulosa qilishiga yordam beradi.

Til uslubi – til turlaridan biri. Masalan, insonlarning turmush davomidagi nutqi, rasmiy sohadagi nutqidan farq qiladi, ilmiy referatlar tili, umumta’lim maktablari pedagoglari tilidan farq qiladi. Til uslublari farqlanadi: badiiy, ish, turmush, ilmiy, publitsistik, professional – texnik.

Ekskursovod tili uslubi nutq qurilishi, fikrlarni izhor qilishning o'ziga xos usulidir. Boshqa uslublardan uni hikoya qilishning o'ziga xos usuli, qisqaligi, aniqligi, mantiqiyliqi, obrazligi, yorqinligi, emotsionalligi, sofligi, boyligi farqlanadi.

Ekskursovod tili individual uslubi uning kasbiy mahorati, nutqiy madaniyatidan dalolat beradi. Ekskursovod tili uslubi o'ziga xosligi, uning qo'llanilishiga bog'liq:

1. U yoki bu tarixiy voqe'lik tashqi tasvirini tiklash;
2. Kuzatilayotgan obyekt, tasvylanayotgan hodisa, tabiat hodisasiga aniq tavsif berish;
3. Uzoq o'tmishning tarixiy holatini ekskursantlar tomonidan his etilishini ta'minlash.

“Ekskursovod nutqida, mazmuni allaqachon yo'qolib ketgan ibora va so'zlarning qo'llanilishi mumkin emas: masalan, (rus tilidagi) «shunday qilib», «demak», «qisqasi». Nutq intonatsiyasi ham muhim. Masalan uning toni butun ekskursiya davomida ulug'vor bo'lishi lozim”. [33, 192b.]

Hikoya tavsifi qo'yilgan masalalarga ko'ra o'zgarishi lozim. Nutq rekonstruktiv, yoki hikoya tarzida bo'lishi lozim. Hikoya - muayyan hodisa yoki uning kechishi haqida nutqdir. Hikoyachi voqealar qay tarzda va qayerda o'tganligini yoritib beradi. Materialning talqin etilishida hikoya uslubi, ko'pchilik ekskursiyalarga xos.

Rekonstruktiv hikoyaning asosiy vazifasi ekskursantlar ko'z o'ngida u yoki bu predmetning boshlang'ich ko'rinishida tiklashdir (masalan, bizning davrimizgacha yetib kelmagan bino haqida hikoya). Qabul qilish jarayonini boshqarayotgan ekskursovod, uning tomonidan yaratilgan tasvirlarni ekskursantlar o'z onglarida tiklashlarini maslahat beradi.

Nutq madaniyati. Odatda, lug'aviy boyligi katta, grammatik konstruksiyalar keng ravishda qo'llanilgan, badiiy tasvir, mantiqiy tekislik, mimika

va ishoralar muvofiqligi bilan farqlanadigan nutqga aytiladi. Professor V.A. Artemov o'zining «Култура речи» kitobida (M.: Znanie, 1966) mazkur tushunchaga talaffuz, nutq grammatik formasi va sintaksisi, hamda stilistik madaniyatini kiritadi.

«Nutq madaniyati» tushunchasiga og'zaki va yozma nutq madaniyati kiradi. Har ikkala nutq mazmunli, tushunarli, aniq va ta'sirli bo'lishi lozim.

Ekskursovod yozma nutq madaniyati, o'z aksini nazorat va individual matnlar, metodik ishlanma, referat, leksiya, retsenziya, bibliografik obraz kabi hujjatlarda topadi.

“Ekskursiya nazorat matni adabiy tilda aks ettirilib, individual matn esa – turmush nutqiga yaqin bo'ladi. Og'zaki nutq madaniyati uch asosiy qism uyg'unligidir: til- nutq madaniyati, psixologik nutq madaniyati, kommunikativ nutq madaniyati.

Til-nutq madaniyati lug'at madaniyati, nutq grammatik formalari va sintaksisi madaniyati, talaffuz madaniyati (tovush, so'z, intonatsiya), stilistik nutq madaniyati, ishora va mimika madaniyati.

Psixologik nutq madaniyati o'z ichiga quyidagi tushunchalarni oladi: mazmundorlik, tushunarlilik, grammatik va stilistik aniqlik, nutq ta'siri (talab, rekomendatsiya, vazifa, iltimos, ta'qiq, ogohlantirish). Nutq psixologik madaniyaga ekskursiya yuritish metodik usullari ta'siri asoslangan.

Kommunikativ nutq madaniyati, auditoriya bilan kontakt yaratishga qaratilgan bo'lib, o'z ichiga ekskursovod – ma'lumotlar manbai; ekskursovod hikoyasi - axborotlar tizimi kabi tushunchalarni oladi. Nutq kommunikativ xususiyatlari o'z ichiga nutq to'g'riligi (adabiy til normalariga rioya qilish); nutq aniqligi o'z ichiga nutq tomonidan aks ettirilayotgan hodisa va predmetlar aniqligini oladi; nutq sofligi, unda adabiy tilga xos bo'lmagan elementlar mavjud bo'lmay, ma'naviyat tomonidan inkor etiladigan nutq elementlari qo'llanilmaydi; nutq yorqinligi (izhor qilinayotgan materialga nisbatan ekskursantlarning e'tiborini

kuchaytirishga qaratilgan); nutq boyligi (tilning turli usullarga boyligi); nutqning kerakligi (uning ekskursiya mavzusi, mazmuni, maqsad va vazifalariga mosligi, ekskursion guruh tarkibiga mansubligi)”. [11, 7b.]

Nutq tempi va ritmi ekskursovod hikoyasi asosida shakllanadi. U ekskursiya davomida almashadi, tezlashadi yoki sekinlashadi. Nutq tempi tez, o‘rtacha, sekin, muloyim va uziluvchan turlarga bo‘linadi. Nutq tempi osoyishta, muloyim, nutq mazmuni effektiv ravishda qabul qilinishiga qaratilgan bo‘lishi zarur.

Aniq mavzularni tayyorlashda, hikoya tuzishda, ekskursovod mustaqil ravishda, qo‘lida soat bilan yakka tartibda mashg‘ulot o‘tkazishi lozim. Nutq tez tempi daqiqasiga 75 ta so‘zni tashkil etadi, o‘rtacha tempi – 60 so‘z, sekin tempi – 45 ta so‘z. Tez aytishlarni qo‘llash maqsadga muvofiq emas (daqiqasiga 80 va undan ko‘p so‘z aytish), u ekskursion materialning qabul qilinishiga halaqit berib, ekskursantlarni charchatadi. Nutqning tezkor tempi, pauzalarga ega bo‘lmasa ekskursantlar tomonidan qabul qilinmaydi. SHu bilan birgalikda, butun ekskursiya davomida nutqning bir – xil tempi ham ekskursantlarni charchatib, bu holat ekskursiyani mazmunsiz va zerikarli qilib qo‘yadi.

Ekskursovod nutqida, materialning asosiy holatlari, boshqa qismlarga nisbatan sekinroq so‘zlanishi kerak. Qolgan holatlarni yoritadigan material esa tezroq so‘zlanadi.

Nutq kamchiliklari sifatida, maxsus terminlar, chet el so‘zlari, so‘z shtamlari, kotibiyat iboralari, uzun iboralarning ko‘p qo‘llanilishini aytish mumkin bo‘lib, bu holatlar ekskursantlar e‘tiborini pasaytiradi.

Ekskursovod yaxshi diksiyaga ega bo‘lishi lozim bo‘lib, bo‘g‘inlar, so‘zlar va iboralarni aniq talaffuz eta olishi lozim. Nutq kamchiliklari toifasiga, so‘z va iboralarning chala talaffuz etilishi, ovoz pastligi, sekin gapirish kiradi.

Til ustida ishlashni ekskursovod nutq texnikasini o‘zlashtirishdan boshlaydi (nafas, tovush, diksiya). Muhimi, diksiya (nutqda tovush va so‘zlarni

to'g'ri talaffuz qila bilish) aniq va ravon bo'lishi lozim. Avvalambor noaniqliklarni barham etish lozim bo'lib, ekskursantlar tomonidan qiyinchilik bilan o'zlashtiriladigan so'zlarni talaffuz etishni o'rganish lozim. SHundan so'ng talaffuz tempiga e'tibor qaratiladi. Har – bir so'z, shu jumladan chet tilidan kirib kelgan so'zlar, hamda ism va shariflar ekskursantlarga tushunarli ravishda aniq talaffuz etilishi shart.

Ekskursovod o'z nutqi ustidan nazorat etishi lozim, ya'ni kerakli paytda ovozini kuchaytirishi yoki sekinlashtira olishi lozim. Nutq intonatsiyasi mantiqan oqlangan bo'lishi lozim, chunki hikoya asosida nafaqat fikr, balki tuyg'u ham bo'lishi zarur. U hikoyaga yorqinlik bag'ishlab, ekskursovodlik material mazmuniga munosabatini ham bildiradi.

Hikoyadagi intonatsiyaning yana bir vazifasi bor – u muayyan fikrni mantiqiy yakunga etkazadi. U fakt mohiyatini yorqinlashtirish, hikoyaga ulug'vorlikni, kutilmaganlikni, savollarni bag'ishlaydi.

Intonatsiya o'zgarishi hikoya mazmunini keltirib chiqaradi, shu sababli ekskursovodning alohida so'zlar va iboralarni alohida intonatsiya bilan ifoda eta olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Og'zaki nutq mahorati egasi I. L. Andronikov ta'kidlashicha, intonatsiya diapazoni cheksizdir. Aytilgan so'zlarning ahamiyati mazmunida emas, talaffuzida deb aytsak xato bo'lmaydi. Alohida iboralar intonatsiyasi, savol, undov, tasdiq, hikoya ko'rinishida bo'lishi mumkin. Hikoya toni quvnoq, mahzun, ulug'vor bo'lishi, ekskursovodning voqealarga munosabatidan kelib chiqadi. Hikoya emotsional holati oqlangan bo'lishi lozim, shu sababli ekskursiya o'tkazishga tayyorgarlik paytida hikoya intonatsiyasi va toni ham ko'rib chiqilishi lozim.

Ekskursovod, so'z, ibora, mantiqiy urg'ularni ham bera olishi lozim. O'z-o'zidan urg'u ton yoki ovozni kuchaytirish yordamida so'z yoki bir guruh so'zlarini ajratishdir.

Mantiqiy urg‘u – nutqning muhim qismini ajratish. Bu kabi urg‘u, ekskursantlar e’tiborini tortish lozim bo‘lgan so‘zlarga nisbatan qo‘llaniladi, bu holat ekskursantlarni fikrlashga undaydi.

Hikoyada iboraviy, mantiqiy urg‘ularni ishlab chiqarish lozim. Istalgan iborada mazmuniy urg‘uni shakllantiradigan guruh shakllanadi. Mantiqiy urg‘uda iborada mazmuniga ko‘ra muhim so‘z va so‘z guruhlari ajraladi. Ekskursovod, matndagi murakkab so‘z va iboralarni yodlashi shart emas. Ularga ko‘nikish, mazmunini tushunish, shundan so‘ng ularni nutqda qo‘llanilishi tabiiy va zarur bo‘lishi lozim. Bunga erishib bo‘lmaydigan taqdirda, alohida so‘zlar, ekskursovodga qulay, ekskursantlarga tushunarli bo‘lishi lozim.

Nutq toni hodisa mohiyatini ochib beradi, unga ekskursantlar e’tiborini qaratadi, ularga to‘g‘ri xulosa qilishga yordam beradi. Muayyan doirada, hikoya muayyan qismi ulug‘vorligi tabiiy holdir, hikoya paytida bir-xillik kabi ortiqcha ulug‘vorlik, emotsionallik, pafos ham ortiqchadir.

Nutq madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha doimiy ish, ekskursovod lug‘aviy boyligini oshirib, hikoyada so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, keraksiz so‘zlardan voz kechish, chet el so‘zlarini qo‘llamaslik bilan bir qatorda, ekskursovodga shaxsiy til uslubini shakllantirishga yordam beradi.

2.2. Matn tushunchasi va gid ekskursovodlik matni tasnifi

Gid ekskursovodlik matnlari xususiyatlarini ta’riflashdan oldin, albatta, matn tushunchasiga ta’rif berish va shu asosda gid ekskursovodlik matnlarini oydinlashtirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Q. Xonazarov muharrirligi ostida nashr etilgan “Ensiklopedik lug‘at”da matn so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan:

1. Muayyan tilning qonun qoidalari, muayyan belgilar sistemasiga muvofiq tuzilib, axborot beruvchi gaplar, so‘zlar (semiotikada - belgilar) izchilligi;

2. Soʻz asari: badiiy adabiyotda tabiiy til belgilari (soʻzlar) va murakkab estetik belgilar (poetik til, syujet, kompozitsiya va h.k.)”dan tuzilgan toʻla asar yoki uning parchasi;
3. Muallifning ilova va tushuntirishlardan holi asari;
4. Nashrda matnning rasm, chizma va formulalardan farqli ravishda soʻz bilan ifodalangan qismi. [56, 254b]

Tilshunoslik fanida bugungi kunga qadar juda ulkan yutuqlar qoʻlga kiritildi. Buni tilning fonologik, morfologik, sintaktik sathlarning har biri bilan bogʻliq muammolar talqinida toʻliq kuzatish mumkin. Lekin matn va uning lingvistik tabiatini oʻrganish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar ilmiy izlanishlarimiz kun tartibiga endigina qoʻyila boshladi. Bunday vaziyat alohida olingan bir necha xususiy tilshunosliklar uchungina emas, balki umumiy tilshunoslik uchun ham xarakterlidir.

Bugungi kunda matn lingvistik tahlilini nimadan boshlamoq kerak va qanday masalalarga eʼtibor qaratilishi lozim, degan savollarga ham tilshunoslarning javoblari mushtarak emas. Bundan tashqari, matnning nutq kategoriyasi ekanligini dalillovchi belgilar nimalardan iborat, uni nutqiy jarayon deb atash lozimmi yoki nutqiy jarayonning natijasi sifatida talqin etish kerakmi, matnni ogʻzaki nutq bilan yoki yozma nutq bilan bogʻlab oʻrganish toʻgʻri boʻladimi, degan muammolar ham kun tartibiga qoʻyilmoqda.

Matnning nutq kategoriyasi ekanligi masalasi bevosita “nutqiy jarayonning oʻzi” va “nutqiy faoliyat natijasi” tushunchalari bilan uzviy bogʻliqdir. Chex olimi K. Gauzenblas matnni ham nutqiy faoliyat sifatida, ham nutqiy faoliyat mahsuli (natijasi) tarzida talqin etadi. Bunda yozma nutq nutqiy faoliyat mahsuli sifatida, ogʻzaki nutq (shu jumladan uning magnit tasmasidagi ifodasi ham) esa nutqiy jarayon deb talqin etiladi. (Sossyur F. de., 1977:67)

Rus tilshunosi I. R. Galperin bu masala bobida mustaqil fikr bildiradi. Unga koʻra, matn har tomonlama mukammal holatga keltirilgan yozma nutq mahsulini

taqozo etishi ta'kidlanadi. Og'zaki nutq esa turli qaytariqlarni, uzun-yuluq gaplarni ham o'z ichiga oladi va shu bois uni tekshiruv obyekti bo'la oladigan matn e'tirof etish maqsadga nomuvofiqdir. (Glison G., 1959:72)

Tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davriga qadar lingvistik tahlilning eng yuqori pog'onasi gap hisoblanib kelingan. Bu haqda aytilgan polyak olimi M. R. Mayenovaning quyidagi fikri ibratlidir: "Yaqin davrlarga qadar lingvistik kuzatuvlar ham gap shakli nihoyasiga yetgan yerda tugatilar edi. Ko'plab gaplarni o'z ichiga oladigan matn esa mazkur ilmiy izlanish doirasidan tashqarida qolar edi" .[6, 9b.]

"Ravshanki, gap tilning eng yuqori pog'onasini tashkil etuvchi birlik sanaladi. Ammo nutqda u eng kichik birliklar jumlasiga kiradi. Shu bois gapni matnning qurilish material tarzida talqin etish maqsadga muvofiqdir". [6, 18b.] Nemis tilshunosi M. Pfyutse ta'kidlaganidek, matn biror maqsad ifodasi uchun o'zaro munosabatga kirishayotgan frazalarning mazmuniga ko'ra birikishidan tashkil topadi. [18, 4b.] Fransuz tilshunosi R. Bart matn tushunchasini quyidagicha izohlaydi: "Ichki bog'lanishli bo'lgan, muloqot maqsadida mazmunan o'zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasini matn deb atash mumkin."

M. V. Lyapon ham matn lingvistikasi muammolarini murakkab sintaktik qurilmalar asosida talqin etadi. U matn tavsifida quyidagi to'rt konsepsiyaga asoslanishi mumkinligini ko'rsatadi:

1. Matn – bu jumlalarning o'zaro munosabatidan kelib chiquvchi xabardir. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini o'rganishga birdan bir manbadir.
2. Matn – bu so'zlovchining nutqiy qobiliyatini ro'yobga chiqaruvchi vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qo'llanilishini ta'minlovchi makon vazifasini ham bajaradi.
3. Matn – bu so'zlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir.

4. Matn – bu til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim funksiya bajaruvchi eng yuqori pog’onasidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, matn borasida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

Matn – bu muayyan tilning qoidalariga muvofiq tuzilgan, ichki bog’lanish asosida o’zaro mazmunan birikkan so’z va gaplar izchilligidan iborat bo’lgan, rasm, chizma va formulalardan farqli ravishdagi, nutqiy faoliyat natijasi bo’lgan xabar, axborotdir.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, rasm, chizma va formulalar matn deb e’tirof etilmasada, ular ham xabar, axborot tashiydi. Axborot tashuvchi bunday rasm, chizma va formulalar paralingvistik vositalar atamasi bilan nomlanadi. Gid ekskursovodlik adabiyotlarida ham matn ham paralingvistik vositalar mavjud bo’ladi.

Amerikaning “Nyu York Times” gazetasi tomonidan “Sayohat niyati bormi, yo’qmi, o’qish uchun maroqli bo’lgan sayyohlar kitobi” deb ta’riflangan Kalum Makleodning “O’zbekiston: Samarqand tomon oltin yo’l” nomli gid ekskursovodlik kitobi, yoki Sharq ziyokori tomonidan nashr etilgan hamyonbop “Samarqand” sayyohlar yo’l ko’rsatmasi gid ekskursovodlik matnlarining yorqin namunasi hisoblanadi. Ularni varaqlab gid ekskursovodlik matni to’plangan kitob tarkibini tasvirlay olamiz.

“O’zbekiston: Samarqand tomon oltin yo’l, nafaqat Samarqand, balki mamlakatimizning barcha shaharlari, ulardagi diqqatga sazovor joylar haqida batafsil ma’lumot beradi. Kitob kirish hamda sayohatchi uchun zaruriy ma’lumotlar, Toshkent, Farg’ona vodiysi, Samarqand, Janubiy yo’l, Xon yo’li, Buxoro, Xorazm deb nomlangan 8ta bob va ilovalardan iborat. Kitobda qo’llanilgan paralingvistik vositalar – mamlakatimizning maftunkor tabiati, uning navqiron tarixiy obidalari tasvirlangan rasmlar, xaritalar, chizmalar, ba’zi o’rinlarda qo’llanilgan dunyoga dong’i ketgan bobokalonlarimiz, hamda o’ta shiddatli tariximizga oid badiiy

hikoyalarning keltirilishi kitobning yanada qiziqarli bo'lishiga o'zining katta hissasini qo'shgan. Kirish qismida mamlakat tarixi, geografik tuzilishi, odamlari, san'ati va arxitekturasi haqida ma'lumot beriladi. 1-bobda O'zbekiston elchixonalari hamda O'zbekistondagi xorijiy elchixonalar, vizalar olish, rasmiylashtirish, mamlakatga yetib borish (havo, temir yo'l, quruqlik bo'ylab), bojxona, registratsiya, mamlakat transport xizmati va turlari, sayyohlik agentliklari, sog'liqni saqlash, iqlim, keyim- kechak, nimalar olib borish, pul, kommunikatsiya, elektr ta'minoti, ommaviy axborot vositalari, turar joy, oziq-ovqat va ichimlik, festival va bayramlar, xalqning madaniyati va urf odatlari haqida amaliy ma'lumotlar keltirilgan. Keyingi boblarda mamlakatimiz shaharlariga to'xtalgan bo'lib, ularning diqqatga sazovor joylari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Ilovalarda o'zbek tili bo'yicha ba'zi ma'lumotlar hamda sayyohlarga asqotadigan qisqacha inglizcha va o'zbekcha so'zlashgich berilgan, shuningdek realiya va arxitektura bo'yicha glossariy keltirilgan.

Sharq ziyokori tomonidan nashr etilgan "Samarqand" hamyonbop gid ekskursovodlik yo'riqnomasi (Samarkand – a pocet guide) esa faqat Samarqandga bag'ishlangan bo'lib unda amaliy ma'lumotlar (kichik inglizcha o'zbekcha so'zlashgich, shahar xaritasi, O'zbekiston shaharlari o'rtasidagi masofa, muzeylar, xarid qilish, restoranlar, pul birligi, pochta xizmati, sog'liqni saqlash, transport, mehmonxonalar) bilan birgalikda shaharning diqqatga sazovor joylari va arxitektura yodgorliklari (Registon ansambli, Amir Temur jome masjidi, Shohi Zinda ansambli, Amir Temur maqbarasi, Ruhobod, Xazrati Xizr masjidi, Imom al-Buxoriy majmuasi, Xo'ja Doniyor maqbarasi) bo'yicha zaruriy ma'lumotlar keltirilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib gid ekskursovodlik matniga quyidagicha ta'rif berish mumkin: muayyan mamlakat, shaharga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun mo'ljallab tuzilgan, tashrif buyiriladigan joyning tarixi, madaniyati, diqqatga

sazovar joylari va boshqa turistlar uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan manba, yo'l ko'rsatma, axborotlar majmui gid ekskursovodlik matni sanaladi.

2.3. Gid ekskursovodlik matnlarining paralingvistik va lingvistik xususiyatlari

Respublikamiz mustaqillikga erishgandan so'ng asta sekinlik bilan jahon hamjamiyatiga integratsiyalashib bordi: qator nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'ldi, jahon hamjamiyatida o'z fikrini ayta boshladi. Shu bilan birgalikda o'ziga xos va boy madaniyatimiz, ulug'vor tariximiz, ko'hna va navqiron tarixiy obidalarimiz sayyohlarni mamlakatimizga jalb etmoqda. Hozirgi kunda o'zimizdan ham ko'pchilik odamlar chet elga sayohatga o'tlanishyapti. Bu globallashuvning jadallashuviga katta sabablardan bo'lib, odamlar hayotining barcha jabhalariga, birinchi navbatda madaniyatga ta'sir o'tkazmasadan qolmayapti. Butun dunyoda turistlarni jalb etish maqsadida ko'plab gazeta va jurnallarda maqolalar nashr etilmoqda, turli xil teleko'rsatuvlar efirga uzatilmoqda va internetga ulkan miqdorda turizm haqida ma'lumotlar joylashtirilmoqda. Ularning ko'pchiligi esa xorijiy tillarda bo'lib, bu o'z o'zidan tarjima borasida ishlarni talab qilmoqda.

Gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilishda, tarjimon fonli ma'lumotlardan iborat bo'lgan "ko'pgina fraziologik birliklarga duch keladi va u ma'lum bir fraziologik birlikni tarjima qilayotganda tarjima tilida uning ma'zmunini beradi (albatta noto'g'ri talqin etmasdan), shu bilan birgalikda o'sha fraziologik birlikning milliy koloritini saqlab qoladi". [15, 118b.]

Zamonaviy turizm, o'zining ishlab chiqarish va iste'mol sohasida kommunikatsion jarayonga global inson resurslarini jalb etib, yirik masshtablarga erishayotgan holda, o'z yozma manbalariga egadir. Aynan ular, zamonamizning tez rivojlanayotgan hodisasi sifatida, ommaviy turizm shakllanishiga muayyan hissa qo'shmoqda.

Xo'sh turizm o'zi nima? Xuddi shu savol ilmiy rahbarim dots. G'anisher Rahimovning "O'zbekistonda xalqaro turizmning rivoji" (The development of international tourism in Uzbekistan) nomli ilmiy ishida ham o'rta tashlangan. "Turizm dunyoning katta binzeslaridan biri, ammo kishilarning nega safarga o'tlanishi turli sabablarga bog'liq. Shuning uchun birinchi o'rin biz sayyohning xarakter xususiyatlarini tushunishimiz kerak bo'ladi. Umumiy ma'noda, sayyoh bu dam olish, ta'lim, yoki boshqa shaxsiy sabablar bilan yurtidan tashqarida safarda bo'lgan kishidir". [19, 14b.] Ilmiy ishga ko'z yugurtirar ekanmiz, safar uyushtirilayotgan joyni tanlab, sarflanadigan vaqtni aniqlab, xarajatlarni to'laydigan kishini turist deyish mumkinligini tushunamiz. Domla kasallikka davo izlab yoki ish qidirib yo bo'lmasa ta'ziya marosimiga kelayotgan o'zga yurt vakillarini turistlar safiga kiritmagan va shu orqali turizm nimaligiga oydinlik kiritgan.

Turizm fani sohasidagi matnlarning mualliflari, tekst axborotlarini shakllantirishda illyustrativ vositalarni qo'llab, bu vositalar, hodisalar va predmetlarni matnlarda talqin etib beradi.

Shunday qilib, ko'rib chiqilayotgan matnlar, o'ziga semantik shakllanishi vositasida, madaniy, muvofiq signalni tanlab olib kuchaytirgan holda mazmunli nutq va mazmuniy – kompozitsion, hamda mazmuniy jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lgan verbal va paraverbal komponentlarni yaratishadi.

Paralingvistik hodisalar o'zining estetik va emotiv xususiyatlari sababli, adresatning katta qiziqishini uyg'otadi. Ular, tomoshabin aksentlarini joy – joyiga qo'yish vositasi sifatida, adresat e'tiborini tashkillashtiradi, hamda masala yechilishi realizatsiyasi sharoitlarini bajargan holda ijobiy – psixologik reaksiyaning dolzarbligiga hissa qo'shadi. Biz tomonimizdan ko'rib chiqilgan matnlarning katta qismida, rasm va fotosur'at kabi paralingvistik, illyustrativ vositalarning keng qo'llanilishi kuzatilgan.

Paralingvistik fenomenlar toifasiga, verbal matnning maydon joylashishi (bo'rtma rasmlar, rubrikatsiya, sarlavhalar ajratilishi, kolonkalarga bo'linishi, intervallar qo'llanilishi, so'zlar, jumlar, iboralar ajratilishi) kuzatilib, bu holatlar turli o'lchamdagi shriftlar, kursivlar va ostiga chizish chizig'i orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda turistik biznesda qo'llaniladigan, matnlar xilma-xilligini quyidagi bir-necha guruhlariga ajratish mumkin.

1. Axborot nashrlari, sayyohlik agentliklari axborot reklama materiallari.
2. Sayyohlik yo'lko'rsatmalar, ensiklopedik maqolalar, va muayyan davlatlar, shaharlar, qadamjolar haqidagi kitoblar, doimiy nashrdagi maqolalar, sayyohlik agentliklari saytlaridagi maqolalar.
3. Sayyohatlar kundaliklari, sayyohlarning shaxsiy fikrlari, internet forumlarga chiqarilgan fikrlar, hamda mashhur shaxslarning amalga oshirilgan sayyohat haqidagi «buyurtma» fikrlari.

O.P. Karibina tadqiqotlariga asoslangan holda ta'kidlashimiz joizki, turistik matnlardagi tipologizatsiyasi, strategiyalarni shakllantiruvchi kommunikativ funksiyalarning adresat tomonidan ko'zda tutilgan kommunikativ funksiyalarga ham tegishli bo'lib qolmoqda.

Bunda strategiyani, muayyan perikativ effektga yo'naltirilgan kommunikativ maqsadga erishishga yo'naltirilgan adresat tomonidan ketuvchi muayyan alohida ustanovka sifatida belgilash mumkin.

Sayyohlik agentliklar tomonidan mijozlar e'tiborini jalb etish uchun qo'llaniladigan axborot vositalarining keng tarqalgan turlaridan biri, turistik bukletlardir. Ularni prezentatsiyalar, namoyishlarda taqdim etishadi, pochta orqali, jo'natishadi, do'kon va ofislarda chiqarib qo'yishadi. Bunday buklet maqsadi, birinchi navbatda potensial mijoz e'tiborini tortishdir. Aynan shu sababli, uning yaratilishida, turli adabiy bezak va texnologik echimlar qo'llanilib, ular bosma mahsulotni yorqin va eslab qoladigan qilishi kerak.

Ma'lumki, bunday materiallardagi matnlar va ularning tarjimalari ham, aynan shu talablarga javob berishi shartdir. Turistik matnlar tarjima qilinishida e'tiborga olish kerakki, ular katta darajada reklama xarajatiga egadir.

O.P. Korebina ko'rsatishicha, hozirgi paytgacha, turizm predmet sohasi matni fenomeni, reklama tashkillashtirilish ijtimoiy maydoni sifatida o'rganilib kelingan. [34, 38b.]

Demakki, ularni tarjima qilish jarayonida, quyidagi ikki masalani yechish zarur:

1. Matn mazmunini to'la – to'kis yetkazib berish lozim.
2. Turistik prospektga gapirib berilayotgan, mamlakat, hudud yoki qadamjolar bilan mijozni qiziqтира olishi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, katta rolni nafaqat reklama darajasini saqlab qolish, chunki u original matnga tegishlidir, balki matn yo'naltirilgan muayyan auditoriyani qiziqтира olishi ham lozimdir.

Bunda ekskursion dasturda katta ahamiyat kasb etadigan mazmuniy daraja haqida ham unutish kerak emas shu sababli, tarjimon juda e'tiborli bo'lib, matnga nisbatan quyidagi bir – necha talabni ham bajarishi lozim:

1. Aborijen mentaliteti, turmushi, odatlari va an'analari, milliy oshxona xususiyatlari hamda fe'l – atvorlari haqidagi axborot maksimal darajada aniq bo'lishi shart.

«Palov (plov, the main ingredients are meat, rice, fat (oil), onions and carrots) the most widespread and favorite dish of Uzbekistan is cooked during both weekdays and holidays.» [54, p. 110] («O'zbekistonda keng tarqalgan va sevimli ta'om bo'lgan palov (asosiy mahsulotlari go'sht, guruch, piyoz, va sabzi) har kuni va bayramlarda ham tayyorlanadi»).

2. Shu bilan birgalikda, toponimik nomlanishlarning o'xshash tarjimalarini ham amalga oshirish lozimdir. Istalgan sayyoh, o'z yo'l ko'rsatmasi yoki tadqiq etilayotgan hudud kartasida tanish nomlanishlarni oson topishi lozim.

Bunday holatlarda muayyan interpretatsiyaga o'rin qolmaydi va jug'rofiy ma'lumotlar korreksiyasining qo'llash mumkin. Masalan: «Brno is situated at the crossroads of the D1 (Prague - Brno) and D2 (Brno - Bratislava) motorways» (Brno D1 (Praga - Brno) va D2 (Brno - Bratislava) magistrallari kesishish joyda joylashgan).

3. Yuqorida aytib o'tilgan talab, qayta ishlanayotgan matnda ko'rsatilgan marshrut ko'rsatishlari tasvirlariga nisbatan ham qo'llaniladi. Agar ekskursiya marshrutining so'z portreti muayyan hudud bo'yicha mavjud bo'lsa, tarjimadagi barcha instruksiylar real ko'rsatkichlar bilan mos bo'lishi kerak, aks holda sayyoh talab etilayotgan joyni yoki ular orasidagi nuqtani topolmay qolishi mumkin. Masalan: « Marshrutkas and buses run from about 6 a.m. until 8 p.m. or 9 p.m. To get between the Registan stop and Navoi in the heart of the downtown area take any vehicle marked GUM (GUM), such as bus 3, 22 or 32, or marshrutka 6 or 35. A taxi between the old town and new town should cost 3000S » [54, p. 97] («Marshutka va avtobuslar ertalab soat 06: 00 dan kech soat 20: 00 yoki 21: 00 gacha qatnaydi. Shahar markazidagi Registon yoki Navoiy bekatlariga borish uchun "GUM" deb yozilgan 3, 22, yoki 32 raqamli avtobuslar yoki 6, 35 marshutka kabi istalgan transportga minavering. Eski va yangi shahar o'rtasida qatnovchi taksilar 3000 so'mga olib boradi.»)

4. Madomiki gap reklama matni haqida ketar ekan, mijozlarni turli ifoda vositalaridan foydalanib qiziqtirish, ularning diqqatini tortish kerak bo'ladi:

Leksik vositalar:

- metaforalardan foydalanish: "**global** in its outlook" - "global manzara"
- ingliz reklamalarida ko'p qo'llanadigan sifatlardan foydalanish: *good, better, friendly, best, free, fresh, full sure, wonderful, welcoming, special, fine, big, real, easy, bright, extra, rich (yaxshi, yaxshisi, do'stona, eng yaxshi, erkin, yangi, to'liq ishonchli, ajoyib, mehmondo'st, maxsus, nafis, katta, haqiqiy, oson, yorqin,*

oliy sifatli, boy) " You will meet **friendly** and **welcoming** people." Sizni samimiy va mehmondo'st odamlar kutib olishadi

Bundan tashqari turistik matnlarda aniq obrazni yaratishga va stilistik ta'sir (masalan, yumor)ga ega bo'lishga, o'quvchi bilan yanada ishonchli munosabatni o'rnatishga qaratilgan so'zlashuvga xos bo'lgan leksikaning ishlatilishini kuzatish mumkin.

Grammatik vositalar

- ritorik so'roq gapdan foydalanish: "Isn't it time you treated yourself to a holiday?"("Ta'tilga chiqish vaqti kelmadimi?");

- qisqartmalardan foydalanish: "Alaska B4UDIE." (Alaska, before you die.)
("Alayskaga bormabsan, bu dunyoga kelmabsan!");

- kishilik va egalik olmoshlarining ishlatilishi. "Biz-bizning", "siz-sizning" kabi konstruksiyalar reklama matniga ancha ishonchlilik beradi: "We work so you don't have to".("Biz ishlaymiz- siz dam olasiz");

- harakatga undash uchun yashirin buyruqdan foydalanish:

try, get, take, send for, use, call, make, let, come on, hurry, come, see, give,remember, discover, choose, look for (sinab ko'ring, ega bo'ling, oling, boring, foydalaning, qo'ng'iroq qiling, bajaring, ruxsat bering, keling, shoshiling, keeling, ko'ring, bering, eslab qoling, kashf eting, tanlang, izlang): "Let the sunshine in your heart. Come to Bali." ("Yuragingizda quyosh nuri porlasin. Baliga tashrif buyiring.");

- yashirin buyruq:"Our spa treatment is certainly worth trying." ("Bizning davolinish markazimiz sinab ko'rishga arziydi").

Fonitek vositalar

- aliteratsiyadan foydalanish (agar tarjimani tovushma-tovush amalga oshirishning iloji bo'lmasa, noodatiy ritm, so'z tartibi, takrorlash kabi turli kombinatsiyalardan foydalaniladi): "Tour to Turkey!!!"("TYP 6 TYPчyo!!!");

Grafik vositalar (e'tiborni tortish, ma'lum so'z o'yinini qo'llash maqsadida amalga oshiriladi): **"I feel Slovenia."** ("Я чувствую Словению"/"Я чувствую любовь" .

Slaveniyani his qilyapman – Sevgini his qilyapman).

Xulosa qilib aytganda, gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilish jarayonida tarjimon qator qiyinchiliklarga duch keladi va matnda qo'llanilgan ifoda vositalarini tahlil qilish, qabul qilingan normalar asosida ularning mos muqobilini topa olishni uddalay olsa bu qiyinchiliklarni hal eta oladi.

Bunday matnlar faqatgina mantiq asosida tashkil etilmasdan, balki o'quvchining hissiy ta'sirlanishi asosiga ham quriladi, tarjimon matnni shunchaki o'girmasdan, balki uni qayta yaratadi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Ekskursovod hikoyasi – tashqi nutq namunasi bo'lib, uning vazifasi insonlar ongi va faoliyatiga ta'sir o'tkazish, ularga aniq obyekt va hodisalar to'g'risida muayyan axborotni yetkazish, va bu axborot ekskursantlar ongida to'g'ri iz qoldirishiga erishishdir.

Ekskursovod tili uslubi nutq qurilishi, fikrlarni izhor qilishning o'ziga xos usulidir. Boshqa uslublardan uni hikoya qilishning o'ziga xos usuli, qisqaligi, aniqligi, mantiqiyligi, obrazligi, yorqinligi, emotsionalligi, sofligi, boyligi farqlanadi.

Ekskursovod tili individual uslubi uning kasbiy mahorati, nutqiy madaniyatidan dalolat beradi. Ekskursovod tili uslubi o'ziga xosligi, uning qo'llanilishiga bog'liq:

- u yoki bu tarixiy voqe'lik tashqi tasvirini tiklash;
- kuzatilayotgan obyekt, tasvilanayotgan hodisa, tabiat hodisasiga aniq tavsif berish;

- uzoq o'tmishning tarixiy holatini ekskursantlar tomonidan his etilishini ta'minlash.

Gid ekskursovodlik matnlari xususiyatlarini ta'riflashdan oldin, albatta, matn tushunchasiga ta'rif berish va shu asosda gid ekskursovodlik matnlarini oydinlashtirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Bugungi kunda matn lingvistik tahlilini nimadan boshlamoq kerak va qanday masalalarga e'tibor qaratilishi lozim, degan savollarga ham tilshunoslarning javoblari mushtarak emas. Bundan tashqari, matnning nutq kategoriyasi ekanligini dalillovchi belgilar nimalardan iborat, uni nutqiy jarayon deb atash lozimmi yoki nutqiy jarayonning natijasi sifatida talqin etish kerakmi, matnni og'zaki nutq bilan yoki yozma nutq bilan bog'lab o'rganish to'g'ri bo'ladimi, degan muammolar ham kun tartibiga qo'yilmoqda.

Matn – bu muayyan tilning qoidalariga muvofiq tuzilgan, ichki bog'lanish asosida o'zaro mazmunan birikkan so'z va gaplar izchilligidan iborat bo'lgan, rasm, chizma va formulalardan farqli ravishdagi, nutqiy faoliyat natijasi bo'lgan xabar, axborotdir.

Muayyan mamlakat, shaharga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun mo'ljallab tuzilgan, tashrif buyiriladigan joyning tarixi, madaniyati, diqqatga sazovar joylari va boshqa turistlar uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan manba, yo'l ko'rsatma, axborotlar majmui gid ekskursovodlik matni sanaladi.

Zamonaviy turizm, o'zining ishlab chiqarish va iste'mol sohasida kommunikatsion jarayonga global inson resurslarini jalb etib, yirik masshtablarga erishayotgan holda, o'z yozma manbalariga egadir. Aynan ular, zamonamizning tez rivojlanayotgan hodisasi sifatida, ommaviy turizm shakllanishiga muayyan hissa qo'shmoqda.

Paralingvistik fenomenlar toifasiga, verbal matnning maydon joylashishi (bo'rtma rasmlar, rubrikatsiya, sarlavhalar ajratilishi, kolonkalarga bo'linishi, intervallar qo'llanilishi, so'zlar, jumlar, iboralar ajratilishi) kuzatilib, bu holatlar

turli o'lchamdagi shriftlar, kursivlar va ostiga chizish chizig'i orqali amalga oshiriladi.

Madomiki gap reklama matni haqida ketar ekan, mijozlarni turli ifoda vositalaridan foydalanib qiziqtirish, ularning diqqatini tortish kerak bo'ladi. Gid ekskursovodlik matnlarida leksik (metaforalardan foydalanish), grammatik (ritorik so'roq gaplar, qisqartmalardan foydalanish, kishilik va egalik olmoshlarining ishlatilishi, harakatga undash uchun yashirin buyruqdan foydalanish) fonitek (aliteratsiyadan foydalanish) va grafik vositalar (e'tiborni tortish, ma'lum so'z o'yinini qo'llash maqsadida amalga oshiriladi)dan foydalaniladi.

Bundan tashqari turistik matnlarda aniq obrazni yaratishga va stilistik ta'sir (masalan, yumor)ga ega bo'lishga, o'quvchi bilan yanada ishonchli munosabatni o'rnatishga qaratilgan so'zlashuvga xos bo'lgan leksikaning ishlatilishini kuzatish mumkin.

Gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilish jarayonida tarjimon qator qiyinchiliklarga duch keladi va matnda qo'llanilgan ifoda vositalarini tahlil qilish, qabul qilingan normalar asosida ularning mos muqobilini topa olishni uddalay olsa bu qiyinchiliklarni hal eta oladi.

III BOB

GID EKSURSOVODLIK MATNLARINI TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR

3.1. O'zbek va ingliz tillarida gid ekskursovodlik leksikasining etimologiyasi

O'zbek tilidagi turistik leksikani etimologik tahlil qilish o'zlashgan so'zlarni aniqlash imkoniyatini beradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, o'zlashgan so'zlar yetarlicha keng. Bunday so'zlar asosan yevropa tillaridan o'zlashgan. Albatta, o'zlashma so'zlarning tilimizga kirib kelishi o'tgan asrdagi sovet tizimi siyosati, hamda so'ngi yillardagi dunyo hamjamiyatining o'zaro integratsiyalashib borishi bilan bog'liq deyish mumkin. O'zbek tilining o'zlashma so'zlar lug'ati hali yaratilmagani sababli bu so'zlarning tilimizga qachon kirib kelganligi bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni topish qiyin.

Dastavval, rus tiliga fransuz, nemis tillaridan so'zlar kirib kelgan bo'lsa, keyinchalik rus tilidan o'zbek tiliga ular o'zlashgan (kupe, salon, vagon, viza, gid, port, turizm, turist, ekipaj, kayuta, kurort, kurs, marshrut kabilar).

Hozirgi vaqtda inson faoliyatining turli sohalari kabi turizm ham liderlik rolini ingliz tili bajarmoqda. Buni quyidagi atama-neologizmlar misolida ko'rish mumkin:

- *gesthaus (guesthouse; 20-30 xonali mehmonxona, uy muhiti mavjud bo'lib, ishchi xodimlar kam sonli bo'ladi, turistlardan tashqari mehmonxona egasining oila a'zolari ham shu yerda istiqomat qilishadi);*

- *loj (lodge; milliy bog' hududida joylashgan mehmonxona bo'lib, mahalliy aholining an'anaviy turar joyi shaklida bo'ladi, atrofdagi landshaft bilan qo'shilib ketadi, shu bilan birgalikda qulaylik va xavfsizlikni ham ta'minlaydi);*

- *hostel (hostel; sayyohlar to'xtaydigan yoshlar mehmonxonasi bo'lib, unda o'z ta'tili xarajatlarini iqtisod qilish mumkin).*

O'zlashma so'zlardan foydalanish muammosiga turli yondashuvlar mavjud. Ko'pchilik tilshunoslarning fikricha boshqa tillardan so'z olish til leksikasi

boyishining tashqi manbasi bo'lib, bu barcha tillar uchun tabiiy hol hisoblanadi, chunki «hech bir xalq, u yoki bu til sohibi mutlaqo boshqalardan ajralib, alohida yashay olmaydi» [Belan, 2009]. Bu har qanday til leksikasida so'z kelib chiqishi uchun tabiiy va muqarrar holat hisoblanadi.

Biroq, bizning tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, bu sohadagi bir qator leksika aynan o'zga tillardan emas balki ichki manba asosida ham boyigan. Tashqi manba asosida olingan so'zlar terminlar sanaladi. O'zbekcha atamalarni ingliz va rus terminlari bilan taqqoslaganda o'xshashliklar anchaginani tashkil etadi.

D. A. Alimova, Y. F. Buryakov, Sh. M. Rahmutullayevlarning “Samarqand tarixi (Qadimgi davrlardan bugungi kungacha)” nomli gid ekskursovodlik matnida sof o'zbekcha bo'lmagan, kontekst orqali anglashiladigan qator atamalarga duch kelinadi. Bu so'zlar gid ekskursovodlik matnida uchraganligi sababli ularga turistik prospektida qo'llaniladigan so'zlar deb qarash mumkin. Asarning N. Shedrina tomonidan qilingan ingliz tilidagi tarjimasida shu so'zlarning aynan takrorlanganligi ularning o'zlashma so'zlar ekanligiga oydinlik kiritadi. Yuqoridagilarga gid ekskursovodlik matnidan quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin:

“Samarqandning janubrog'ida, xushmanzara Omonqo'ton vodiysida, Taxtaqoracha davoni yaqinidagi tog' yonbag'rlaridan birida arxeologlar stalaktik – sumalaksimon oqma tomchilardan hosil bo'lgan karstli g'orni topdilar”. [52, 4b.]

“At a slope of one of the spurbs of mountain range near the Takhtakarach passage, in the picturesque valley of Amankutan, southward from Samarkand, archeologists discovered a karst grotto with garlands of stalactites”. [53, p. 5]

O'zbekcha	Inglizcha	Mazmuni
Bronza	bronze	Sariq-jigarrang ko'rinashidagi metal, buyum; tarixiy atama sifatida davr (bronza davri)
Karst	karst	Toshtuz, ohaktosh, gips singari eruvchan jinslardan tuzilgan yerlarning notekis ko'rinishi va hossalari
Material	material	Material; ma'lumot; gazlama
Metall	metal	Pulat, temir, oltin kabi qattiq modda
Morol	maral	Sibir bug'usi
Muflon	moufflon	Tog' echkisi turi
Paleolit	palaeolithic	Eng qadimgi tosh davri
Simpozeum	symposium	Ilmiy kengash
Stalaktik	stalactile	G'or tepasida hosil bo'lgan sumalaksimon oqma tomchi
Yubiley	jubilee	Qutlov marosimi

Yuqoridagi jadvaldan shu narsa anglashilmoqdaki, gid ekskursovodlik matnlari keng qamrovli bo'lib, ularda turli sohalar leksikasi, terminlari qo'llanilishi odatiy hol sanaladi. Chunki gid ekskursovodlik matni tarixiy ma'lumotni ham, arxitektura, san'at, madaniyat, urf odat va marosimlarni ham, geografik ma'lumotlarni ham o'zida aks ettiradi. Shu sababli gid ekskursovodlik turizmida alohida ahamiyat kasb etadi.

S. Tuxliyev., B Sh. Safarovlarning "Turizm asoslari" o'quv qo'llanmasida o'zbek tiliga o'rnatilgan quyidagi turizmga oid leksikaga duch kelish mumkin:

(safari) palatkalari

Anketa

Assambleya	Otel-garni
Assotsiatsiya	Otel-luks
Bojxona	Pansion
Botel	Pekij
Bron	Poxod
Delegatsiya	Prays (varaqa)
Eksklyuziv	Propiska
Ekspeditsiya	Reklama
Ekspluatatsiya	Rekvizit
Ekstremal	Rotel
Flaytel	Sanitar-gigiyenik
Flotel	Shopping
Gid	Supervayzer
Instruktor	Trassa
Kalkulatsiya	Turagent
Katalog	Turoperator
Kemping	Turpaket
Konferensiya	Uchastka
Litsenziya	Viza
Markirovka	Xarita
Motel	

“Sayohatlarining maqsadlariga ko‘ra kiruvchi va chiquvchi xorijiy fuqarolar sonining taqsimlanish ko‘rsatkichlari, bevosita turizm maqsadi bo‘yicha tashriflar ulushining kamligi, bizningcha, kerakli turpaket, brend va turistik xizmatlar servisining nisbatan past darajada ekanligidan dalolat beradi”. [8, 41b.]

Yuqoridagi misollar tilimizda turizmga oid o‘zlashma so‘zlar yetarlicha kengligini ko‘rsatmoqda. Bu so‘zlar asosan rus tili orqali kirib kelgan, lekin so‘ngi paytlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri ingliz tilidan o‘zlashmoqda.

Ingliz tilida esa turizm leksikasi keng o'rganilgan bo'lib bir necha lug'atlar ham ishlab chiqilgan. S. Medlikning "Dictionary of travel, tourism and hospitality" ("Sayohat, turizm va mehmondo'stlik lug'ati" 2003-yil) va Peter Kollin Publishing tomonidan nashr etilgan "Dictionary of leisure, travel and tourism" ("Bo'sh vaqt, sayohat va turizm lug'ati" 2006) shular jumlasidan. "Bo'sh vaqt, sayohat va turizm lug'ati" talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, barcha bosh so'zlarning talafuzi transkripsiyalarda berilgan. Lug'atda umumiy ovqatlanish (restoran, oshxona), mehmonxona, sayohat, sug'urta, sog'liqni saqlash va xavfsizlik, oziq-ovqat, ekoturizm, shu bilan birgalikda umumiy biznesga oid so'zlar, atamalar jamlangan.

Quyida "Dictionary of leisure, travel and tourism" ("Bo'sh vaqt, sayohat va turizm lug'ati" 2006)dan olingan misollarni ko'rib chiqamiz. So'zlarni lug'atdagidek ta'riflashga harakat qildik.

action-packed holiday – hayajonli faoliyat bilan mashg'ul bo'linadigan ta'til turi ;

activity holiday – qiziqarli va hayajonli bo'lgan tog'ga chiqish, baydarka, rasm chizish kabilar bilan mashg'ul bo'linadigan rejalashtirilgan ta'til;

adaptor plug – boshqacha o'lchamli rozetkaga ulash uchun qo'llaniladigan adaptor jihoz;

admission – biror kishiga biror joyga kirish uchun beriladigan ruxsat yoki biror joyga kirish uchun to'lanadigan pul miqdori;

adventure holiday – biror qiziqarli yoki biroz xatarli narsalar qilinadigan sayohat;

adventure tourism – ko'plab sarguzashtga boy kunlarni o'tkazish mumkin bo'lgan sayohat yoki turizm;

adventure travel – uzoq hududlarda kuchli va ko'pincha xavfli, ochiq havoda bajariladigan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladigan ta'til;

advertised tour, advertised hotel – turistik kompaniyaning broshurasida ma'lumotlari keltirilgan sayohat yoki mehmonxona

alps – Shvetsariya va Shimoliy Italiyadagi, Avstriya, Sloveniya va Fransiya'dagi ma'lum hududlarni o'z ichiga oluvchi tog'li hududlar;

ancient site – o'tmishda shahar yoki binolar bor bo'lib va hozirda faqat ularning qoldiqlari yoki bo'sh maydonlari qolgan joy;

AONB (=Area of Outstanding Natural Beauty) tabiiy ko'rinishi bilan mashhur bo'lgan joy;

backpacking – uzoq masofali sayohat yoki safarga ketish oldidan tayyorgarlik, kiyim-kechaklarni olish jarayoni;

boarding house – kichik, shaxsiy bo'lgan, yashash va ovqat uchun haq to'lanadigan uy;

business tourism – chet elda uyushtirilgan konferensiyada ishtirok etadigan businessmenlar sayohati;

camping site – kemping va karvonlar uchun moslangan, o'zida palatka, umumiy hojatxona, yuvinish joylari va shunga o'xshash qulayliklarga ega bo'lgan joy;

campus holiday – o'qish tugagach talabalar turar joyida o'tkaziladigan talabalar ta'tili;

Qo'shimcha: Kampus holidaylar mehmonxonada yashaladigan ta'tillarga qaraganda arzonroq va ko'pincha universitet tomonidan intellektual va san'atga oid mashg'ulotlar yoki sport mashg'ulotlari (qoyaga chiqish, baydarka suzish) uyushtiriladi.

chalet – odatda taxtadan yasaladigan kichik sayyohlar uyi. [62, p.2-44]

Lug'atni varaqlar ekanmiz, sayohat jarayoniga, ta'til va mehmonxonaga oid so'zlar turizm so'zlari deb ko'rsatilganligiga guvoh bo'lamiz. Yuqoridagi misollar fikrimizni dalillaydi.

3.2. Gid ekskursovodlik matnlarida ekvivalentsiz birliklar tarjimasini

Gid ekskursovodlik matnlari keng qamrovli bo'lib, ularda ma'lum bir joyning tarixi, me'moriy yodgorliklari, aholisining turmush tarzi, madaniyati va tarixiga doir ma'lumotlar o'z aksini topadi. Muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va hodisalarni aks ettiradigan lisoniy vositalar gid ekskursovodlik matnlarining milliy xususiyatini aks ettiradigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Bunday vositalar xos so'zlar yoki realiyalar deb yuritiladi. Tarjimashunos olim Qudrat Musayev xos so'zlarni quyidagicha ta'riflaydi: "Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalar xos so'zlar deyiladi. Tilning lug'at tarkibi o'zi mansub bo'lgan til jamoasining moddiy-ijtimoiy hayotini, chunonchi, milliy urf-odat va an'analarini, geografik tasavvurini, ma'naviyati va dunyoqarashini, diniy e'tiqodini, axloqiy me'yorlarini, tafakkur yo'nalishini moddiy aks ettiradi." [6, 89 b.] G'aybulla Salomov ham realiya tushunchasiga quyidagicha oydinlik kiritgan: "Milliy o'ziga xoslik deganda xalq hayotining moddiy hayot sharoiti, ma'naviy turmush tarzi, tabiati, o'rmon, tog', dala, suv, zamin, osmon, hamda afsona va cho'pchaklari, tarixi va dini, adabiyoti va san'ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, atamalari tushuniladi. Kiyim-kechak, udumlar, urf-odatlar, pul birliklari va hokozolar ham milliy xoslik komponentlari jumlasiga kiradi". [15, 101 b.] Demak, realiya yoki xos so'z bu faqat ma'lum bir xalqqa tegishli, uning tilida mavjud bo'lgan milliy tushuncha, so'z hisoblanadi.

Gid ekskursovodlik matni ma'lum bir xalq turmush tarzi, uning tarixi haqida hikoya qilar ekan, unda faqat o'sha xalq va uning tiliga xos bo'lgan so'zlarning ko'plab uchrashi ajablanarli hol emas. Bunday matnlarni tarjima qilish jarayonida tillar o'rtasidagi tafovutlarni yaqqol ko'rish mumkin.

"Tillar orasidagi tafovut esa odatda bir xalq moddiy xayotida mavjud muayyan tushunchalar, voqea-xodisalar, urf-odatlarning ikkinchi xalq turmush tarzida uchramasligi, shu tufayli ular nomlarining ham ayni xalq tilida tabiiy

ravishda yo'qligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, lug'aviy ekvivalentlik munosabatida bo'lgan ayrim ikki til juftliklari bir-birlaridan biror xususiyatlari bilan o'ziga xos ravishda farq qilishlari mumkin. Bu xol til birliklarining milliy xususiyatini belgilash baravarida ularning tarjimada o'zaro almashinuvlariga to'sqinlik qiladi". [6, 89 b.]

Bunday so'zlarni tarjima qilishning bir nechta usuli mavjud. Muqobili yo'q so'zlarni tarjima qilishning eng oson yo'li bu - so'zlarni transliteratsiya qilish, ya'ni so'z talaffuzini berish, saqlash hisoblanadi. Bu usuldan kishi ismlarini, joy nomlarini, geografik nomlarni, lavozimlarni, gazeta va jurnallar, ya'ni davriy nashr nomlarini, korxona, tashkilot, firma, kompaniya nomlarini, kema hamda mehmonxona nomlarini transliteratsiya qilishda keng qo'llanadi.

Ba'zan ma'lum maqsadda transliteratsiyadan foydalaniladi. Tarjima nazariyasida mavjud adabiyotlarning ko'rsatishicha, transliteratsiyadan foydalanish afzalliklarga ega, chunki transliteratsiya asliyatda ishlatilgan so'zning talaffuz shaklini beradi. Transliteratsiya so'zning grafik jihatini hisobga oladi.

Masalan, o'zbek tiliga ingliz tilidagi Hamlet so'zi ikki yo'l bilan beriladi: Gamlet hamda Hamlet. Ikkinchi usul o'zbek tili qonun-qoidalariga yaqin bo'lishi bilan birga talaffuzi ingliz tilidagi so'zga juda yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazkur so'zni transliteratsiyada beradigan bo'lsak, u Hemlit shakliga ega bo'ladi. Bu yuqoridagi talablarga javob bermaydi. Ba'zan ayni bir ism bir nechta usulda berilishi talab etiladi. Bu aksariyat hollarda matnning usuli va janriga bevosita bog'liq. Bundan tashqari tasvirlanayotgan voqea yoki hodisa qaysi davrda va qaysi mamlakatda yuz berayotgani tarjimon uchun juda muhim hisoblanadi. Ko'p hollarda ismni ham davr va matnning qaysi janrda yozilganiga qarab transliteratsiya qilinadi. Masalan: Samarqand shahar nomini olaylik. O'zbek tilidagi bu shahar nomi ikki xil usulda berilishi mumkin. Ingliz tilida bu nom "Samarqand" hamda "Samarkand" shakllarida transliteratsiya qilinishi mumkin.

Birinchi usulda transliteratsiya qilingan so'z aksariyat hollarda tarixiy matnlarda qo'llansa, ikkinchi usuli zamonaviy matnlarda ishlatiladi. Shuni aytib o'tish kerakki, ikkinchi usul asosan rus tili ta'sirida shu shaklga kelib qolgani ma'lum, ingliz tilidagi "Isaac" so'zining ham bir necha usulda transliteratsiya qilingan shakllari mavjud. Diniy matnda bu ism "Isak", ilmiy va badiiy matnda "Ayzek" deb beriladi. O'zbek tilida bu diniy matnda Iso, ilmiy va badiiy asarlarda "Ayzek", boshqa hollarda "Isoq" yoki "Is'hoq" deb beriladi. Bu yerda matn uslubi va janridan tashqari transliteratsiya, transkripsiya hamda an'analar hisobga olinadi.

Qonun-qoidalaridan tashqari an'ana yoki ba'zan noqobil tarjimonning xatosi to'g'rilanmay keng ommaga tarqalib ketgan hollar ham uchrab turadi. Bizning nazarimizda o'zbek tilidagi Farg'ona shahrining nomi yuqorida aytgan fikrimizning dalili bo'lishi mumkin. Bu so'zning ingliz tilida ikkita transkripsiyasi mavjud. Mazkur so'z o'zbek tilidan to'g'ridan-to'g'ri transkripsiya qilinsa "Farghana", rus tili orqali qilinsa, "Fergana" ko'rinishlariga ega bo'lishi lozim edi. Biroq hozir bu so'zning "Ferghana", ya'ni na o'zbek tiliga va na rus tiliga to'g'ri keladigan shakli qo'llanilmoqda. Yana bu so'zning noto'g'ri transkripsiya qilinganini isbotlovchi ingliz tilidagi gh harf birikmasiga e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Bu harf birikmasi o'zbek tilida "g" harfining transkripsiyasiga to'g'ri keladi. Qiyoslang: Afghanistan - Afg'oniston. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu usuldan kishi ismlarini, joy nomlarini, geografik nomlarni, lavozimlarni, davriy nashr nomlarini, korxona, tashkilot, firma, kompaniya nomlarini, kema hamda mehmonxona nomlarini transliteratsiya qilishda keng qo'llanadi.

Agar davriy nashr nomlarini transliteratsiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, bunda asosiy e'tibor gazeta va jurnallar nomiga va ayni paytda ular kimlarning manfaatiga xizmat qilishiga qaratilmog'I lozim. Chunki gazetalarining nomini faqat transliteratsiya qilish bilan cheklanib bo'lmaydi. Masalan, "The Daily Express", "The New York Times" gazetalarini olsak. Gazetaning nomi mashhur bo'lishi mumkin, lekin ularning nomi o'zbek o'quvchilariga birdek ma'lumot bermaydi. "The Daily

Express” “ ingliz konservatorlar gazetasi Deyli Ekspres” deb tarjima qilinishi maqsadga muvofiq. Bu yerda transliteratsiya bilan bir qatorda tarjimaning ma'nosini rivojlantirishga e'tibor qaratilib so'zga, bu yerda gazeta nomiga aniqlik kiritilyapti. Xuddi shu narsani “The New York Times” gazetasiga ham nisbatan qo'llash lozim. Bu davriy nashr nomi bilan qatorda o'zbek o'quvchisiga ma'lumot berish va gazeta nomini transliteratsiyaga qilish quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: “AQShning milliy gazetasi Nyu York Tayms”.

Shuni unutmaslik kerakki, aslyatda bevosita berilmagan qo'shimcha ma'lumotlar tarjimon tomonidan sahifa osti izohlarida va tushuntirishlar orqali beriladi. Buning uchun tarjimon juda chuqur bilimga ega bo'lishi lozim. Yasama, yangi qo'shma hamda kalkalash yo'li bilan olingan so'zlarni tarjima qilishda tarjimon topqirligini namoyon qilishi lozim, biroq bu narsalar til qonun-qoidalariga zid bo'lmasligi va uning qo'llanishini kontekst taqozo etishi lozim.

Tarjima qilinayotgan tilda muqobili yo'q so'zni tarjima qilishning keyingi yo'li ma'noni yaqinlashtirib tarjima qilish. Buni so'z analogiyasi bo'yicha tarjima qilish deb ham yuritish mumkin. Agar tarjima qilinayotgan tilda aslyatda qo'llangan so'zning muqobili bo'lmasa, tarjimada o'sha so'z ma'nosiga o'xshash va yaqin so'z tanlanadi. Masalan, o'zbek tilidagi "halim", "holvaytar" va "sumalak" so'zlarini tarjima qilishda shunday yo'l tutish tavsiya etiladi. Buning uchun shu so'zlarga xorijiy tilda ma'nodosh yoki o'xshash so'z tanlanadi. Bunda bitta so'z o'rniga so'z birikmasi ishlatilishi mumkin. O'zbek tilidagi "halim" so'ziga inglizcha mos va muqobil bo'ladigan so'z yo'q, biroq bug'doy bilan uzoq qaynatiladigan biror o'xshash ovqat nomini tanlash mumkin. Tegishli so'z topilmaganda uni “porridge with wheat and stewed meat” shaklida berish mumkin. Bundan tashqari bu so'zni “nutritious meat porridge” deb ham berish mumkin. Qaysi so'zni tanlash kontekst va tarjimon mahoratiga bogliq.

Tarjimaning yuqoridagi tilga olingan usulidan tashqari yani bir yo'li - tasviriy tarjima hisoblanadi. Bunda bir so'zning o'rniga tarjimada so'z birikmasi,

ibora yoki butun bir gap qo'llanishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi "spacewalk" so'zi o'zbek tiliga "kosmosga chiqish", o'zbek tilidagi "havaskor" ingliz tiliga "amateur talent activities" deb tarjima qilinadi.

Shunday qilib, muqobili bo'lmagan so'zlarni tarjima qilishning beshta usulini - 1) transliteratsiya, 2) sarlavha osti izohlari va tushuntirish, 3) kalkalash, 4) o'xshash so'zlar bilan tarjima qilish, 5) tasviriy tarjimalarni ko'rib chiqdik. Ularning hammasida o'ziga xos kamchiligi mavjud. Ba'zi tarjimada so'z va iboralar faqat ayni tarjima doirasida qolib ketishi mumkin, izoh va tushuntirish esa tarjima matni hajmini ko'paytirib yuboradi, o'xshash tarjima esa tarjimaning sifatiga va aniqligiga putur yetkazadi. Biroq yuqoridagi usullardan oqilona foydalanish tarjimada berilgan ma'lumotni imkon qadar to'liqroq saqlab qolishga va tarjima sifatini oshishiga olib keladi. Tarjima usulini tanlashda matnning uslubiy hamda janr xususiyatlarini hisobga olinadi. Har bir tilning so'z birikmasi hosil qilish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Gid ekskursovodlik matnlarida o'zbekcha xos so'zlar ingliz tiliga asosan transkripsiya va transliteratsiya asosida tarjima qilingan. D. A. Alimovanning "Samarqand tarixi (qadimgi davrlardan hozigi kungacha)" asarining tarjimasidan ba'zi misollarni keltiramiz:

Quyidagi gapda "ayvon" – "iwan", "chorbog'" – "chorbog'" tarzida tarjima qilingan.

"Shahar va uning atrofida sohibqiron 14ta bog'-ayvonli chorbog'lar, gulzor qilingan va suv havzalari bo'lgan saroylar bunyod ettirdi". [52, 29 b.]

"In the city and outside of it by the order of Temur 14 gardens – chorbags with iwans, palaces with flower beds and water pools were created". [53, 31b.]

Yuqoridagi tarjimada ba'zi grammatik xatolarni ham ko'rish mumkin. Masalan, ingliz tilida "by order of" birikmasi aniq artiklsiz ishlatiladi. "Oxford English dictionary"da "Domesday ['du:mzdeɪ] a noun, a comprehensive record of

the extent, value, ownership, and liabilities of land in England, made in 1086 by order of William I” misoli berilgan va unda “by order of” aniq artiklsiz qo’llanilgan.

“To’qimachilar, temirchilar, arqon sotuvchilar, shamchilar, savat to’quvchilar, namat sotuvchilar, un va sabzavot bozorlari, turli xil molar bilan savdo qiluvchi Bozori Xurdafurushon (uning xududida simkashlarning do’koni bo’lganligi eslatiladi) va boshqa sohalarning do’konlari bo’lgan”. [52, 33 b.]

“There existed markets of yarn-spinners, smiths, sellers of cords, chandlers, basket makers, sellers of felt, flour and vegetable markets, market of Attaron where perfumery and other small shops were situated, a market of retail sale – Bazari Khurdafurushon (the dukan of wire drawers – simkash is mentioned to be located in its territory), etc”. [53, 39-bet]

Yuqoridagi gapda “do’kon” – “dukon” tarzida transliteratsiya usulida tarjima qilingan bo’lsa, quyida “hovuz” so’zi inglizcha talafuzga moslashtirilib “hauz” tarzida transkripsiya usulida tarjima qilingan:

“Devor ichkarisidagi maydon va ko’chalar obodonlashtirilib, ariq va hovuzlar qazildi. Atrof ko’kalamlashtirilib, bir-biri bilan uyg’unlashgan me’moriy yechimlar vujudga keltirildi. Yangi mahobatli obidalar bunyod etildi”. [52, 25-26b]

“The city squares and streets were landscaped and finished, the network of canals and hauzes was laid, the city was beautiful by planting trees, shrubs and flowers, the central composite architectural units were created, and new monumental ensembles were erected”. [53, 30bet]

Yuqoridagi kabi misollarni bu gid ekskursovodlik matnida ko’plab uchratish mumkin. Quyidagi jadvalda transliteratsiya va transkripsiya usulida tarjima qilingan so’zlarni beramiz.

Tarjima usuli	O'zbekcha	Inglizcha
Transliteratsiya	chorbog'	Chorbog
	do'kon	Dukon
	Korxona	Korkhona
	Maqom	Maqom
	Simob ko'zacha	Simobkuzacha
	To'ra	Tura
	Xonaqoh	Honako
Transkripsiya	Ayvon	Iwan
	Hovuz	Hauz
	Karvonsaroy	Caravanserai
	Madrasa	Madrasah
	Robod	Rabad
	Shaxriston	Shakhristan
	Sulton	Sultan
	Vaqf	Waqf
	Vazir	Vizier
	Xon	Khan

D. A. Alimovanning “Samarqand tarixi (qadimgi davrlardan hozigi kungacha)” asarining tarjimasida ba’zi o’rinlarda o’zbekcha realiyalar tasviriy tarjima asosida yoki izoh orqali tarjima qilingan:

“Arxeologlar Afrosiyobda X asr Samoniy hukumdorlarining hashamdor xonalari bo’lgan qasrlarini topganlar. Qasr xonalari oq ganchdan ishlangan chiroyli naqshinkor panellar bilan bezatilgan”. [52, 21 b.]

“The archeologists unearthed on Afrasiab the ruins of a palace of the Samanid rulers from the tenth century with the staterooms and halls decorated with excellent panels from the carved snow-white stucco or fretwork of ganch (*a kind of alabaster*)”. [53, 25 b.]

“Shaharga suv maxsus qo’rg’oshin quvur – “Jo’yarziz” orqali keltirilardi. U Markaziy Rasut toq bozori qubbalari ostidan shahar devoir orqali o’tkazilgan bo’lib, yer osti suv o’tkazgich quvurlari bilan qasr va jome masjidiga olib borilgandi”. [52, 22 b.]

“The city was supplied with water by the special leaded aquaduct “Dzhuiarziz” which passed through the city wall above the domes of the central market of Ras at-Taka and then ramified by way of the main underground water pipes “kuburs” running to the citadel and the cathedral mosque”. [53, 25 b.]

“Samarqandlik temuriy sultonlar uni pir tutib, murid bo’lishdi”. [52, 32 b.]

“His religious disciples were some of the Temurid sultans from Samarkand” .[53, 37b.]

Yuqoridagi misollarda ganch, quvur va murid so’zlari tasvirlab tarjima qilingan. Quyidagi xos so’zlar ham gid ekskursovodlik matnida tasviriy tarjima asosida ingliz tiliga o’girilgan:

Askiya – kizikchilik - askiya (buffoonery of comic actors)

Baxshi – bakhshi (folk poets-singers)

Hunarmandchilik jamoasi – the original craft communities

Kofir – kafir (disbelievers in Islam)

Murid – murid (religious disciples)

Non – flat cake

Shayxulislom – sheihulislam (feudal lord)

Simkash – simkash (wire drowers)

Tesha – the hand tool of a hatched-type with a blade put across the hatchet helve

Uyezd – canton, a small territorial division of a country

“Samarqand tarixi”da ba’zi o’rinlarda o’zbekcha realiya inglizcha realiya bilan almashtirilgan. Bu usul quyidagi so’zlarda kuzatiladi:

Piyola – teacup

Shahid – martyr

Rais – supervisor

Oshpazlik – eatery

Viloyat – province

Tim – arcade

Masalan, o’zbekcha matndagi “XI asrda Hazrati Xizr masjidi qayta qurilgan va muqaddas shahidning qutlug’ maqbarasi bilan tutashtirilgan”. [52, 23 b.] gapi ingliz tiliga “In the 11th century, the Hazrati Hyzr mosque was reconstructed and connected to the memorable mausoleum of a saint martyr” [53, 26b.] ko’rinishida tarjima qilingan va “shahid” so’zi “martyr” tarzida o’girilgan. Ammo ingliz tilidagi “martyr” – diniy yoki siyosiy qarashlari tufayli azob chekuvchi, qiynaluvchi, yoki o’ldirilgan shaxsga nisbatan ishlatiladi, o’zbek tilida “shahid” so’zi tamoman o’zgacha ma’ni kasb etadi.

Quyidagi misolda ham o’zbekcha “piyola” xos so’zi inglizcha “teacup” bilan almashtirilgan:

“Bu davrga oid hunarmandchilik mahsulotlari – qizil va qora lak bilan qoplangan chiroyli nafis qadahlar, yupqa kosa va piyolalar yunon va rimliklarning laklangan idishlarini eslatadi”. [52, 14b.]

“The handicraft production of that period was represented by elegant thin goblets with a ring foot, thin-walled bowls and teacups, covered with red and black varnish reminding the Greek and Roman varnish vessels” .[53, 16b]

“Samarqand tarixi” gid ekskursovodlik matnida xos so’zlarni tarjima qilish uchun tarjima tilida yangi so’z yasash, kalkalash usulidan ham foydalanilgan. Masalan, o’zbekcha matndagi “Amir Muzaffarning o’g’li Abdumalik to’ra

lashkarlari qo'zg'olonchilarga yordam berish uchun shaylandi, ular Hisor, Shahrisabz va Qarshi bekliklaridan bo'lgan maslakdoshlarini o'z bayrog'i ostida birlashtirgan edilar" [52, 44b.] gapidagi "beklik" so'zi inglizcha matndagi "The Emer Muzaffar Abdulmalik-tura's son gathered the squadron having united under his banners all the like-minded men from Gissar, the Shakhrisabz and Karshi begdoms (beg's principalities) and set out to support the insurgents. [53, 53b.] Bu gapda "begdom" tarzida kalkalash usulida tarjima qilingan. Bu yerda "beg's principalities" yangi so'z "begdom"ni tushunishga yordam beradi. Ammo tarjimada semantik xatolik mavjud bo'lib "the Emer Muzaffar Abdulmalik – tura's son" emas "The Emer Muzaffar's son Abdulmalik tura" tarzida tarjima qilinishi kerak edi. Chunki Abdulmalik to'raning o'g'li emas, Amir Muzaffarning o'g'li haqida gap ketmoqda. Quyidagi gapda ham "egarchi" so'zini tarjima qilishda kalkalsh usulidan foydalanilgan:

"Turli manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, XIX asrning 70-yillari boshida Samarqandda 1610ta ustaxona, shu jumladan, 827ta to'quvchilik, 15ta ipak yigiruv, 42ta bo'yoqchilik, 162ta etikdo'zlik, 63ta egarchilik, 37ta kulolchilik, 26ta tikuvchilik, 42ta duradgorlik, 77ta chilangarlik, duradgorlik va temirchilik, 12ta cho'yan qo'yish, 4ta g'isht pishirish, 34ta chiroq-moy va sovungarlik, 30ta ko'nchilik va hokazo ustaxonasi bo'lgan." [52, 45b.]

"According to various sources, in the beginning of the 1870s, there were 1610 workshops, including 827 weaver's, 15 filatures, 42 dyeing houses, 162 shoe-maker's, 63 saddle-maker's, 37 potter's, 26 tailor's workshops, 42 carpenter's, joiner's and turneries, and 77 forges, 2 grey-iron foundries, 4 burnt brick producing units, 34 tallow-candle and soap-producing units, and 30 tanning workshops, etc. in Samarkand". [53, 54b.]

Demak, gid ekskursovodlik matnlarida xos so'zlarni tarjima qilishda transliteratsiya, transkripsiya, tasviriy tarjima, ma'noni yaqinlashtirib tarjima qilish, izoh orqali tarjima qilish, realiyani realiya bilan berish, kalkalash kabi

usullardan keng foydalaniladi va bu usullarning o'ziga xos yutuq va kamchiliklari ham mavjud.

3.3. Samarqand tarixiy obidalari haqidagi matnlar tarjimasi qiyosiy tahlili

Samarqand tarixi, uning ko'hna tarixiy obidalari va diqqatga sazovor joylari haqida ko'plab kitoblar, bukletlar nashr etilmoqda, internet veb sahifalari yaratilmoqda. Ayniqsa bu adabiyotlarni o'zbek, ingliz, rus va boshqa qator tillarda o'qish mumkin. Quvonarlisi uch tilda (o'zbek, ingliz, rus) chop etilayotgan kitob va bukletlar soni ko'p tirajli. Bu - shaharda turizm rivojlanayotganidan, qolaversa gid ekskursovodlik matnlari yaratilayotganidan dalolat. Ammo sohada qilinishi kerak bo'lgan ishlar talaygina.

Gid ekskursovodlik matnlarida muzeylar haqidagi ma'lumotlar salmoqli o'rinni egallaydi. "Samarqand tarixi" nomli kichik risolada ham Samarqand shahridagi muzeylarga o'rin ajratilgan. Unda quyidagilarni o'qiymiz:

"Samarqand – muzeylar shaxri. Bu yerda Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi tarkibida O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi muzeyi, Samarqand viloyat o'lkashunoslik muzeyi, Samarqand shahar (Afrosiob) tarixi muzeyi, Ulug'bek rasadxonasi yodgorlik tarixi muzeyi, Sadriddin Ayniy yodgorlik uy-muzeyi bor". [52, 59b.]

Risolaning ingliz tilidagi tarjimasida yuqoridagi ma'lumotga quyidagi tarjima to'g'ri keladi:

"Samarkand is the city of museums. Here within the Samarkand State museum reserve the Samarkand museum of History, The museum of History of the Foundation of Samarkand on the Afrasiab Site, the memorial complex of the observatory of Ulugbek, the Regional museum, the House – museum of Sadriddin Ayni are included". [53, p.72]

Ingliz tilidagi ma'lumotni ravon o'qiymiz. To'g'ri, tarjima albatta tarjima qilinayotgan til normalariga amal qilingan holda o'giriladi. Ammo o'zbek va ingliz

tilidagi gaplarni o'zaro taqqoslarkanmiz tarjimaning qator qonuniyatlari buzilganligiga guvoh bo'lamiz. Tarjimashunos olim V.N. Komissarov fikriga ko'ra tarjima asliyatning funksional, semantik va strukturual xususiyatlarini o'zida mujassam etishi kerak, ya'ni asliyat qanday vazifa bajarsa, unga qanday talab qo'yilgan bo'lsa, uning vazifasi nimadan iborat bo'lsa tarjima ham shu talablarga javob bera olishi lozim. Bu uning funksional xususiyati (functional identification) hisoblanadi. V. N. Komissarov buni quyidagicha izohlaydi: "Tarjimani xuddi u asliyatdek qabul qilishadi, undan havolalar olishadi. Masalan, fransuzcha gazetada Amerika prezidenti nutqini xuddi u faransuzcha gapirgandek qabul qilishadi" .[36, crp. 6] Semantik xususiyati (Semantic identification) esa uning mazmuni bilan bog'liq. Albatta, tarjima asliyatning to'liq mazmunini ochib berishi, u asliyatdek ta'sircha bo'la olishi lozim. Tarjimonga qo'yiladigan talablardan biri tarjimani to'g'ri amalga oshirish, mazmunni noto'g'ri talqin qilmaslikdir. Strukturual xususiyat (Structural identification) esa voqealar ketma-ketligini saqlashga oid hisoblanadi.

Asliyatdagi "O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi muzeyi" so'z birikmasi "the Samarkand museum of History" deb tarjima qilingan. Tarjimaning semantik ma'nosi "Samarqanddagi tarix haqidagi muzey"ni ifodalaydi. Tarjima jarayonida qator transformatsiyalarni qo'llaymiz. O'zbekcha "O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi muzeyi" so'z birikmasini "the Samarkand museum of History" deb berilishi leksik transformatsiyaning generilizatsiya (umumlashtirish) turini esga tushiradi. Ammo transformatsiya turlaridan o'rinli foydalanish lozim. Chunki yuqoridagi muzey nomini:

- the Uzbekistan museum of culture and art history, yoki
- the museum of history of culture and art of Uzbekistan deb o'girish mumkin edi. "Samarqand o'lkashunoslik muzeyi" negadir tarjimaning strukturual qonuniyatiga zid tarzda keyingi o'rinda "the Regional museum" deb berilgan.

Ammo boshqa jihatdan asliyatga mos muqobil topilgan, odatda “Samarqand o’lashunoslik muzeyi”ga o’xshash muzeylar “the regional museum” deb nomlanadi.

Tarjimada “the memorial complex of the observatory of Ulugbek” so’z birikmasi asliyatdagi semantika bilan teng emas. “the memorial complex of the observatory of Ulugbek” deyilganda Ulug’bek rasadxonasini o’zini tushunamiz. Muzey esa bu rasadxona ichida tashkil etilgan bo’lib, alohida nom bilan “Ulug’bek rasadxonasi yodgorlik tarixi muzeyi” deb ataladi. Keyingi o’rinda berilgan “Samarqand shahar (Afrosiob) tarixi muzeyi”ga muqobil ekvivalent “the Museum of Foundation of Samarkand on the Afrasiab Site” topilgan. Shuningdek “Sadriddin Ayniy yodgorlik uy-muzeyi”ga ham to’g’ri yechim topilgan.

Yuqorida keltirgan tahlilimizdan N. Shedrina tomonidan qilingan tarjimada umumiy qilib berish (generilizatsiya)dan keng foydalanilganligi ko’rinib turibdi. Tarjimashunos olim G’. Salomovning “Tarjima nazariyasi asoslari” kitobida tarjimon qator o’zgartirishlarni amalga oshirishi mumkinligi, asosiysi yozuvchining uslubini, matning o’ziga xos xususiyatlarini ko’rsata olishi o’ta dolzarbligi ta’kidlangan edi.

Ba’zi o’rinlarda leksik transformatsiyaning konkretlashtirish usulidan ham foydalanilgan. Masalan, quyidagi gapda o’zbekcha matndagi “Shohi Zinda dahmasi” ingliz tilida tasvirlanib, aniq qilib berilgan:


“Bibixonim masjidi yaqinida, shaharning shimoliy chekkasida, “durdonalar marjoni” – Shohi Zinda daxmasi atrofida temuriylar oilasi maqbaralarining qatori joylashgan”. [52, 26b.]

“Near the Bibi-khanum mosque on the northern suburb of the city rises “the necklace of masterpieces” – a chain of the mausoleums of the Temurid family around the shrine of Shakhi-Zinda – “living king” – the cousin of the Prophet Muhammad Kussam ibn Abbas”. [53, p. 31]

Gid ekskursovodlik matnlarida avval aytib o’tganimizdek paralingvistik vositalardan – rasmlar, xaritalar, chizmalar va boshqalardan foydalaniladi.

Jumladan, “Samarqand tarixi”da ham qator paralingvistik vositalar ishlatilgan: qadimgi So’g’d shaharlari xaritasi, Afrasiyobning umumiy plani kabilar, ammo ularni berishda ham qator kamchiliklar ko’rinadi. Fikr dalili sifatida quydagi rasmga e’tibor qarating.

2-rasm



Manba: D.A. Alimova “History of Samarkand” T.2011(75b.)

Rasmga “Cities of ancient Sogd” tarzida izoh berilgan. Ammo xaritada joy nomlari ingliz tilida aks etmagan. Holbuki, bu asarning ingliz tilidagi tarjimasiga ilova tarzida berilgan. Gid ekskursovodlik matnlarida hamma narsa puxta ishlab chiqilgan bo’lishi talab etiladi.

Tarjima matnida birgina noo’rin so’z qo’llanilishi natijasida asliyat mazmuni to’liq ochib berilmagan holatlar ham uchraydi. Masalan:

“Shaharda davlat harbiy-ma’muriy va madaniy hayotning barcha salohiyati jamlangan edi” .[52, 3b.]

“They included the basic potential of military-administrative and cultural life of the state”. [53, p. 3]

Bu yerda birgina “basic” so’zi tarjima aniqligiga putur yetkazmoqda, chunki “barcha” va “basic” so’zlari teng ma’noli emas.

“Boy tabiat, behisob hayvonu baliqlari, yavvoyi mevali darxtlarining mo’l-ko’lligi va hamisha yoqimli shabada esib turishi, tarixchilarning fikricha, paleolit, ya’ni tosh asrining eng qadimgi davrlaridayoq bu yerga odamlarni jalb qilgan”. [52, 5b.]

“Ample resources of nature, abundance of animals and fish, wild fruit and tress, the warmth of the sun and the constant pleasant breeze were always attractive for people even during the primordial times of the Stone Age, or the Palaeolithic age as it is named by historians.”. [53, p.5]

Yuqoridagi misolda asliyatda tarixchilar fikricha paleolit, ya’ni tosh asrida bu yerdagi boy tabiat odamlarni o’ziga jalb etganligi aytilgan, lekin tarjimada tarixchilar tosh asrini paleolit asri deb nomlashgan va bu yerning boy tabiati odamlar uchun maftunkor bo’lgan ma’nosi aks etib tarjima asliyatning aynan mos muqobili emas.

Bizning maqsadimiz amalga oshirilgan tarjimani faqatgina kamchiliklarini topishdan iborat emas, balki keyingi ishlarda xatolar takrorlanmasligini ta’minlashga hissa qo’shish. Ayni paytda “The history of Samarkand”ning yutuqlarini ta’kidlab o’tishga burchlimiz. Quyidagi so’z birikmalari ajoyib tarzda o’girilgan:

Zar sochuvchi daryo – gold bearing river

Yer yuzining sayqali – the face of the earth

Yer yuzining porloq nuqtasi – the glittering point of the Globe

Tarix marjonidagi dur – pearl in the necklace of history

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda matni parallel o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lgan kitoblar kam sonli va gid ekskursovodlik matnlari tarjimasini o’rganishda “The history of Samarkand” o’ta qimmatli adabiyot sanaladi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilishda uning leksikasi bilan tanish bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi, shuningdek, o'zbek tilidagi turistik leksikani etimologik tahlil qilish o'zlashgan so'zlarni aniqlash imkoniyatini beradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, o'zlashgan so'zlar yetarlicha keng. Bunday so'zlar asosan yevropa tillaridan o'zlashgan. Albatta, o'zlashma so'zlarning tilimizga kirib kelishi o'tgan asrdagi sovet tizimi siyosati, hamda so'ngi yillardagi dunyo hamjamiyatining o'zaro integratsiyalashib borishi bilan bog'liq deyish mumkin. O'zbek tilining o'zlashma so'zlar lug'ati hali yaratilmagani sababli bu so'zlarning tilimizga qachon kirib kelganligi bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni topish qiyin.

Dastavval, rus tiliga fransuz, nemis tillaridan so'zlar kirib kelgan bo'lsa, keyinchalik rus tilidan o'zbek tiliga ular o'zlashgan. Hozirgi vaqtda inson faoliyatining turli sohalari kabi turizm ham liderlik rolini ingliz tili bajarmoqda va o'zbek tiliga ingliz tilidan ham turizm leksikasi o'zlashmoqda. O'zbekcha atamalarni ingliz va rus terminlari bilan taqqoslaganda o'xshashliklar anchaginani tashkil etadi.

Gid ekskursovodlik matnlarida sof o'zbekcha bo'lmagan, kontekst orqali anglashiladigan qator atamalarga duch kelinadi. Bu so'zlar gid ekskursovodlik matnida uchraganligi sababli ularga turistik prospektga qo'llaniladigan so'zlar deb qarash mumkin.

Gid ekskursovodlik matnlari keng qamrovli bo'lib, ularda turli sohalar leksikasi, terminlari qo'llanilishi odatiy hol sanaladi. Chunki gid ekskursovodlik matni tarixiy ma'lumotni ham, arxitektura, san'at, madaniyat, urf odat va marosimlarni ham, geografik ma'lumotlarni ham o'zida aks ettiradi. Shu sababli gid ekskursovodlik turizmga alohida ahamiyat kasb etadi.

Gid ekskursovodlik matnlarida turizmga oid atamalardan tashqari xos so'zlar ham uchraydi. Xos so'zlarni tarjima qilishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. transkripsiya;

2. transliteratsiya
3. tarjima orqali yangi soʻz –neologizm hosil qilish;
4. soʻzma – soʻz (kalka) tarjima qilish;
5. realiyalarni realiya bilan tarjima qilish;
6. maʼnoni yaqinlashtirib tarjima qilish;
7. realiyani izohlab bayon qilish;
8. kontekstual muqobili bilan almashtirish

Biz tomonimizdan koʻrib chiqilgan gid ekskursovodlik matnlarida xos soʻzlarni tarjima qilishda transliteratsiya, transkripsiya, tasviriy tarjima, maʼnoni yaqinlashtirib tarjima qilish, izoh orqali tarjima qilish, realiyani realiya bilan berish, kalkalash kabi usullardan keng foydalanilgan boʻlib, bu usullarning oʻziga xos yutuq va kamchiliklari ham mavjud.

Masalan, transliteratsiya va transkripsiya usuli milliy koloretni berishda juda qulay boʻlsada, ularning koʻp qoʻllanilishi matnning tushunilishini qiyinlashtiradi. Izoh orqali tarjima qilish matn osti izohlarining koʻpayib ketishiga sabab boʻladi, tasviriy va maʼnoni yaqinlashtirib tarjima qilish asiyatdagi aniq tushunchani tarjima tilida mavhumlashtiradi. Ammo, tarjima nazariyasida hozirgacha bu tarjima usullaridan boshqa yangi usul taklif qilinganicha yoʻq.

Tahlil qilingan gid ekskursovodlik matnlarida qator transformatsiya usullaridan samarali foydalanilgan. Ayniqsa leksik transformatsiyaning umumiyashtirish turi keng ishlatilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda gid ekskursionlik matnlarini tarjima qilish masalalari butun dunyo olimlarining diqqat-e'tiborini tortib kelayotgan, eng muhim tadqiqot obyekti sifatida qiziqarli masalga aylanib bormoqda. Gid ekskursionlik matnlarini turizm sohasi sifatida yoki gid ekskursion faoliyati bilan bog'lab yoki matn sifatida lingvistik va paralingvistik jihatdan o'rganish mumkin.

Gid ekskursionlikni turizm sohasi sifatida o'rganish uning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish imkonini beradi. Turizm dunyoning katta biznesi bo'lib u gid ekskursionlikka o'z ta'sirini o'tkazadi. O.P. Korebina ko'rsatishicha, hozirgi paytgacha, turizm predmet sohasi matni fenomeni, reklama tashkillashtirilish ijtimoiy maydoni sifatida o'rganilib kelingan. Demakki, ularni tarjima qilish jarayonida, quyidagi ikki masalani yechish zarur:

1. Matn mazmunini to'la – to'kis yetkazib berish lozim.
2. Turistik prospektga gapirib berilayotgan, mamlakat, hudud yoki qadamjolar bilan mijozni qiziqтира olishi.

Ekskursion dasturda katta ahamiyat kasb etadigan mazmuniy daraja haqida ham unutish kerak emas shu sababli, tarjimon juda e'tiborli bo'lib, matnga nisbatan quyidagi bir – necha talabni ham bajarishi lozim:

- xalqning mentaliteti, turmushi, odatlari va an'analari, milliy oshxona xususiyatlari hamda fe'l – atvorlari haqidagi axborot maksimal darajada aniq bo'lishi;
- toponimik nomlanishlarning o'xshash tarjimalarini ham amalga oshirish;
- tasvirlangan marshrut yo'nalishlarining aniq bayon etilishi kabilar.

Ilmiy tadqiqot ishida biz gid ekskursionlikni atroflicha o'rganish uchun turizmga to'xtaldik, uning ta'rifi, rivojlanishi va turlarini ko'rib chiqdik va ilmiy adabiyotlar asosida turizmga quyidagicha ta'rif berdik:

- Turizm atama sifatida odamlarning bo'sh vaqtlarida o'z doimiy turar joylaridan boshqa mamlakat yoki o'z mamlakatlari ichida ta'surot va dam olish, sog'liqni tiklash, mehmondorchilik, bilim olish yoki kasbiy amaliy maqsadlarda sayohat qilishlari, lekin borgan joylarida pul bilan rag'batlantiriladigan ish bilan shug'ullanmasligini anglatadi;
- yo'lga qo'yilganligida, maqsadli va ommaviyligidadir.” [5, 64b.]

O'zbekistonning turistik potensialini o'rganish gid ekskursovodlik uchun ham ahamiyatga ega. “Regional va xorijiy ekspertlar O'zbekistonning turistik imkoniyatlarini yuqori baholab, markaziy Osiyo mintaqasida uni birinchi o'rin, hamda eng yuqori turistik imkoniyatli 20 ta davlatlar qatoriga kiritishdi. Respublikaning rekreatsion imkoniyati tabiiy-iqlimiy sharoit, flora va fauna, mineral resurslar tufayli boy va xilma-xildir. U o'z ichiga o'rmon xo'jaliklari, milliy parklar, qo'riqxonalar, dam olish zonalari, turistik sog'lomlashtirish komplekslari, mineral manbalar, turistik baza va bolalar ekskursion – turistik stansiyalarini hisobga olib, turizmni rivojlantirish va davlat byudjeti daromadining asosiy manbalari bo'lishiga asos bo'lishi mumkin.” [9, 12b.]

Samarqand davlat iqtisodiyot va servis institutining O'zbekistonda turizmni rivojlantirish borasidagi ilmiy ishlariga tayangan holda, respublikada turizm sohasini yanada rivojlantirish va bu sohadan yuqori daromad olish uchun quyidagi bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni sanab o'tamiz:

- mehmonxonalar soni va sifatini oshirish;
- restoranolar va ovqatlar turi hamda xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish;
- resurslardan samarali foydalanish uchun kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- zamonaviy turistik komplekslarni bunyod etish;
- xorijiy sarmoyani jalb etish;

- yirik xorijiy tur firmalar bilan turistik xizmat ko'rsatishning yangi shakllarni yo'lga qo'yish;
- milliy xususiyat va milliy an'analarni e'tiborga olgan holda reklama va targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish". [4, 3b.]

Gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilish masalalarini gid ekskursovod faoliyati va ekskursiyashunoslik bilan bog'lab o'rganish samarali natija beradi. Rus ekskursiyashunoslaridan G. P. Doljenkoning "Экскурсионное дело" (Ekskursiya ishi), K. V. Kulayevning "Экскурсионная деятельность: теоретические и методологические основы" (Ekskursiya faoliyati: nazariy va metodologik asoslari), B. V. Yemelyanovning "Экскурсоведение" (Ekskursiyashunoslik) nomli o'quv qo'llanmalarida ekskursiya ta'rifi, ekskursiya tarixi va rivojlanish bosqichlari, gid ekskursovod, unga qo'yiladigan talablar, gid ekskursovodlikda til va nutq tushunchalari va ularning xususiyatlari, ekskursiya marshrutlari va ularni tashkil etish atroflicha ochib berilgan.

Gid ekskursovodlik matnlari xususiyatlarini ta'riflashdan oldin, albatta, matn tushunchasiga ta'rif berish va shu asosda gid ekskursovodlik matnlarini oydinlashtirish maqsadga muvofiq sanaladi. Tadqiqotimizda gid ekskursovodlik matnlarini matn tilshunosligiga tayanib o'rgandik va unga quyidagicha ta'rif berdik

Muayyan mamlakat, shaharga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun mo'ljallab tuzilgan, tashrif buyiriladigan joyning tarixi, madaniyati, diqqatga sazovar joylari va boshqa turistlar uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan manba, yo'l ko'rsatma, axborotlar majmui gid ekskursovodlik matni sanaladi.

Gid ekskursovodlik matnlari ikki xususiyatga ega bo'ladi:

- lingvistik xususiyatlar;
- paralingvistik xususiyatlar.

Paralingvistik fenomenlar toifasiga, verbal matnning maydon joylashishi (bo'rtma rasmlar, rubrikatsiya, sarlavhalar ajratilishi, kolonkalarga bo'linishi, intervallar qo'llanilishi, so'zlar, jumlar, iboralar ajratilishi) kuzatilib, bu holatlar

turli o'lchamdagi shriftlar, kursivlar va ostiga chizish chizig'i orqali amalga oshiriladi.

Lingvistik xususiyatlarga gid ekskursovodlik matnlarida leksik (metaforalardan foydalanish), grammatik (ritorik so'roq gaplar, qisqartmalardan foydalanish, kishilik va egalik olmoshlarining ishlatilishi, harakatga undash uchun yashirin buyruqdan foydalanish) fonitek (aliteratsiyadan foydalanish) va grafik vositalar (e'tiborni tortish, ma'lum so'z o'yinini qo'llash maqsadida amalga oshiriladi)dan foydalanilganligi misol bo'ladi.

Gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilish jarayonida tarjimon qator qiyinchiliklarga duch keladi va matnda qo'llanilgan ifoda vositalarini tahlil qilish, qabul qilingan normalar asosida ularning mos muqobilini topa olishni uddalay olsa bu qiyinchiliklarni hal eta oladi.

Tadqiqot ishimizda gid ekskursovodlik matnlari leksikasini tahlil qildik unga ko'ra gid ekskursovodlik matnlari keng qamrovli bo'lishi, ularda turli sohalar leksikasi, terminlari qo'llanilishi odatiy hol ekanligiga amin bo'lindi. Chunki gid ekskursovodlik matni tarixiy ma'lumotni ham, arxitektura, san'at, madaniyat, urf odat va marosimlarni ham, geografik ma'lumotlarni ham o'zida aks ettiradi. Shu sababli gid ekskursovodlik turizmga alohida ahamiyat kasb etadi.

Gid ekskursovodlik matnlarida turizmga oid atamalardan tashqari xos so'zlar ham uchraydi. Xos so'zlarni tarjima qilishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- transkripsiya;
- transliteratsiya
- tarjima orqali yangi so'z –neologizm hosil qilish;
- so'zma – so'z (kalka) tarjima qilish;
- realiyalarni realiya bilan tarjima qilish;
- ma'noni yaqinlashtirib tarjima qilish;
- realiyani izohlab bayon qilish;

– kontekstual muqobili bilan almashtirish

Biz tomonimizdan ko'rib chiqilgan gid ekskursovodlik matnlarida xos so'zlarni tarjima qilishda transliteratsiya, transkripsiya, tasviriy tarjima, ma'noni yaqinlashtirib tarjima qilish, izoh orqali tarjima qilish, realiyani realiya bilan berish, kalkalash kabi usullardan keng foydalanilgan bo'lib, bu usullarning o'ziga xos yutuq va kamchiliklari ham mavjud.

Masalan, transliteratsiya va transkripsiya usuli milliy koloretni berishda juda qulay bo'lsada, ularning ko'p qo'llanilishi matnning tushunilishini qiyinlashtiradi. Izoh orqali tarjima qilish matn osti izohlarining ko'payib ketishiga sabab bo'ladi, tasviriy va ma'noni yaqinlashtirib tarjima qilish asiyatdagi aniq tushunchani tarjima tilida mavhumlashtiradi. Ammo, tarjima nazariyasida hozirgacha bu tarjima usullaridan boshqa yangi usul taklif qilinganicha yo'q.

Tahlil qilingan gid ekskursovodlik matnlarida qator transformatsiya usullaridan samarali foydalanilgan. Ayniqsa leksik transformatsiyaning umumiyashtirish, aniqlashtirish turlari keng ishlatilgan.

Dissertatsiya ishimizda erishilgan natija va xulosalar gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilishga doir nazariy va amaliy tadqiqotlarni metodologik asoslarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Erishilgan natija va xulosalardan tarjima nazariyasi va amaliyoti, turizm, ekskursiyashunoslik fanlarini o'qitishda ma'ruza materialllari sifatida, gid ekskursovodlik matnlarini tarjima qilish yo'riqnomalarini tuzishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T: Sharq NMK., 1999. -257b
2. Karimov I. A. “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” – Toshkent, 2000. -61b.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2010. – b.
4. Asadova A. O'zbekistonda turizmning rivojlanishi: qo'lyozma – Samarqand, 2015. – 40b
5. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari: o'quv qo'llanma – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2011. – 288b
6. N. Turniyozov. Matn lingvistikasi. Ma'ruzalar matni. Samarqand: SamDCHTI nashri, 2004. – 48b.
7. Pardayev M.N., Atabayev R. “Turizm asoslari” ma'ruzalar matni, Samarqand 2007. – 108b.
8. Tuxliyev I.S. “Turizm asoslari ” fanidan o'quv qo'llanma, Samarqand 2010. – 305b.
9. Yo'lchiyev D. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari: qo'lyozma – Toshkent, 2011. – 76b
10. “Yosh ekskursovod” to'garak dasturi. Toshkent, 2012. – 23b.
11. Тариқулов М. О. «Экскурсия йўналишларини тузиш» ма'руза матнлари ТДИУ «сервис» кафедраси
12. Владимирова Н. Миллийликни таржимада акс эттириш муаммоси. Таржима санъати. Т., 1973, б.153
13. Дониёров Р. Бадиий таржимада миллий хусусиятларни акс эттириш масаласига доир. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1962. №3-5.
14. Норчаев А.Н. Халқаро туризм. Маъруза матнлари. ТДИУ 2005 й. 43 б

15. Саломов Ғ. “Таржима назарияси асослари”, Тошкент : “Ўқитувчи”, 1983
16. “Туризм тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Ўзбекистоннинг янги қонунлари.-Т.: Адолат, 2000, 131-140 б.
17. Hausenblas K. Vystavba jazykovych projevu a styl. – Praha, UK, 1972
18. Pfutze M. Grundgedanken zu einer funktionalen Textlinguistik. – Textlinguistik. Dresden, 1970
19. Rahimov G. The development of international tourism in Uzbekistan: diploma paper – Samarkand, 1997. – 37p
20. Uzbekistan – New world: set of booklets – Advertising information agency of the national company, 1995. – 20p
21. Александрова А. Ю. Международный туризм: Учебное пособие для вузов. - М.: Аспект Пресс, 2001. - 464 с.
22. Алексеева И. С. Введение в переводоведение: Учеб. пособие для студентов филол. и лингвист. факультетов высш. учеб. заведений. - СПб.: Филолог. факультет СПбГУ; М.: Изд. Центр «Академия», 2004. - 352 с.
23. Белан Э.Т. Особенности формирования новых терминосистем (на материале английской и русской терминологий международного туризма): дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20. - М., Московский гос. обл. ун-т, 2009. - 189 с.
24. Брандес М. П., Провоторов В. И. Предпереводческий анализ текста. - Курск: Издательство РОСИ, 1999. - 224 с.
25. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. - М., 1973. - 196 с.
26. Виноградов В. С. Перевод: Общие и лексические вопросы. - М.: КДУ, 2004. - 240 с.
27. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. - М.: Высшая школа, 1986. - 384 с.
28. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. Изд.2, М., 1986

29. Гальперин И. Р. О понятии “текст”. Вопросы языкознания, 1974
30. Гафурова Г. Некоторые особенности воспроизведения колорита эпохи в художественном переводе. Актуальные проблемы теории художественного перевода. I –II т. М., 1967
31. Договорное право: практика профессионального перевода в языковой паре английский русский.- М: 2006.- С.16-90.
32. Долженко Г. П. Экскурсионное дело – oq’uv qo’llanma – М: “Mart”, 2006. – 304b
33. Емельянов Б. В. Экскурсоведение – o’quv uslubiyo qo’llanma – Moskva, 1997. – 128b
34. Каребина О.П. Семантическая организация лингвистических и паралингвистических феноменов в текстах предметной области «Туризм»: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19. - Краснодар, Кубанский гос. ун-т, 2008. - 191 с.
35. Келтуяла В. В. О переводе интернациональных слов // Тетради переводчика. - Вып.- 4. - М.: Международные отношения, 1973. - С. 47-
36. Комиссаров В. Н. “Теория перевода”, Москва: Высшая школа, 1990
37. Комиссаров В. Н. Слово о переводе. М, 1973
38. Комиссаров В.Н. Практикум по переводу с английского языка на русский, «Высшая школа» Москва – 1990
39. Латышев Л. К. Технология перевода. - М.: НВИ - Тезаурус, 2000. - 280 с.
40. Лузянина Л.Л. Практикум по устному переводу с русского языка на иностранный (экскурсионное дело) гоу впо омский госуниверситетим Ф.М Достоевского 2009. - 47с.
41. Микулина Л. Т. Заметки о калькировании с русского языка на английский // Тетради переводчика. - Вып.-15. - М.: Международные отношения, 1978. - С. 59-64.

42. Мирзаев И. К. Проблемы передачи слов, обозначающих реалии французской жизни на узбекский язык. Ленинград, 1975
43. Павлов Г. В. О фактической правильности перевода // Тетради переводчика. - Вып.-10. - М., 1973. - С. 57-69.
44. Разговорный речь.-М:Наука 1973 -с 17-18.
45. Репин Б. И. Национально – специфические слова – реалии как особая часть лексики в переводимом произведении. В сб. Теоретические и практические вопросы преподавания иностранного языка, М., 1970.
46. Реформатский А. А. Введение в языковедение / Под. ред. В. А. Виноградова. - М.: Аспект Пресс, 1996. – 536 с.
47. Рецкер Я. И. Теория перевода и переводческая практика. Очерки лингвистической теории перевода. - М.: «Р. Валент», 2004. - 240 с.
48. Россельс Вл. Перевод и национальное своеобразие подлинника. В сб. Вопросы художественного перевода. М., 1955
49. Супрун А. Е. Экзотическая лексика // Научные доклады высшей школы. – М., 1958. - С. 51-54
50. Тимко Н. В. Культурологический аспект перевода (на материале переводов английских, немецких и русских художественных текстов). - Курск: Изд-во РОСИ, 2003. - 152 с.
51. Федоров А. В. Основы общей теории перевода. - М.: Высшая школа, 1983. - 303 с.

Gid ekskursovodlik matnlari

52. Alimova D.A., Buryakov Y.F., Rahmatullayev Sh.M. Samarqand tarixi (qadimgi davrlardan bugungi kungacha). – T.: Art flex, 2009. – 73b.
53. Alimova D.A., Buryakov Y.F., Rahmatullayev Sh.M. The history of Samarkand. – T: Art flex, 2009. – 102p.
54. Bradley Mayhew. Central Asia. – Singapore: Lonely Planet, 2014. – 394p.

55. Maclead C. Mayhew B. Uzbekistan. The golden road to Samarkand. – Honh Kong: Odyssey Publication, 1999. – 328p.

Lug'atlar

56. Ensiklopedik lug'at, 2 tomlik, 2 tom, ilmiy taxriri kengash, T O'zbek Sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1990, 544 bet
57. O'zbek tilining izohli lug'ati – T: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. 5 jildli
58. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Ўқитувчи нашриёти, 1978
59. Apperson G.L. English Proverbs and Proverbial Phrases. – London. – New
60. Collins Dictionary of English Language. – London; Glasgoe, 1999. – 1690 p.
61. Dictionary of Contemporary English. – Editor-in-Chief Procter P. – London: Papermark, 1998. – XXXIX, 1303 p.
62. Dictionary of leisure, travel and tourism. Published by Peter Collin publishing. Reprinted 1999.
63. Dictionary of travel and hospitality, S. Medlik, 2003, 273 bet
64. Hornby A.S. Oxford student's dictionary of Content English. – Oxford: Oxford University press, 1984. – 769 p.
65. Longman Dictionary of Contemporary English. – London: Longman, 1997. – 1229 p.
66. Murray. A.Y. – Oxford: Oxford at the Clarendon Press, 1993. – 1405 p. (OED)
67. The Concise Oxford Dictionary. – Ed. by Sykes J.B. – Oxford: Oxford University Press, 1992. – 1312 p.
68. The Kenkyusha Dictionary of Current English Idioms., ed. by Sanki Ichikawa, Tokyo, 1993 (Kenk.). – 990 p.
69. The Oxford English Dictionary of The English Language / Ed. By James

York Hornby A.S. e.a. The Advanced Learner's Dictionary of Current English. –, 1929. – 499 p.

70. Англо-русский лингвострановедческий словарь. / Под ред. проф. Г.В. Чернова.- М: 1996.

71. Иллюстрированный толковый словарь иностранных слов. / Сост. Л.П. Крысин. М: 2008.

72. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева.

Elektron manbalar

73. <http://slovari.yandex.ru/>

74. <http://linguists.narod.ru/downloads.html>

75. <http://www.durov.com/study/1126965784-307.html>

76. <http://youreng.narod.ru/teoper.html>

77. <http://tpot.ru/index.html>

78. <http://www.langinfo.ru>

79. <http://www.lingvoda.ru/forum/actualthread.aspx?bid=2&tid=244>

80. <http://www.twirpx.com/rss/category/4175/>

81. <http://www.twirpx.com/file/311224/>

82. <http://www.twirpx.com/file/847903/>

83. <http://www.uz-translations.net>

**Samarqand tarixiy obidalariga oid gid ekskursovodlik
matnining parallel tarjimasi**

O'zbekcha	Inglizcha
So'z boshi o'rnida ¹	Introduction
Samarqand dunyoning eng qadimiy va betakror shaharlardan biri. U o'zida 2750 yillik boy tarix va qadimiy sivilizatsiya namunalarini mujassam etadi. Zarafshon vohasining markazida joylashgan bu noyob shahar azal – azaldan o'troq hayot, sug'orma dehqonchilik, ilm-fan va taraqqiyot markazi bo'lishi bilan birga, jahon tarixida insoniyatning madaniy beshiklaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Samarqandning vujudga kelishi, shakllanishi to'g'risida ko'pgina ma'lumotlar uchraydi. Ko'hna Sharq yozma merosining noyob durdonasi Avesto kitobida Sug'd o'lkasining ajoyib iqlimi serhosil yerlari haqida so'z boradi. Abul Abbos Ja'far ibn Muhammad al Mustag'firiyning «Tavorixi Samarqand», Abu Hafs Najmiddin Umar bin Muhammad an-	Samarkand is one of the most ancient and inimitable cities of the world. It embodies patterns of ancient civilization and a 2700-year rich history. This rear city located in the center of Zeravshan Oasis is not only the center of settled life, watering agriculture and development but also it is admitted as a cultural cradle of the humanity in the world history. There is so much information about appearing and building up of Samarkand. Amazing climate and fertile land of Sogd in “Avesta” which is a pearl of great price of written oriental heritage were written. Hundreds of historical literatures give us basics and detailed materials such as “Tavorikhi Samarkand” by Abul Abbos Jafar Ibn Muhammad al-Mustaghri, “Kitob al-

¹ O'zbekcha matn f.f.n. Boboyorov M. X. muharrirligi ostida nashr etilgan “Samarqand tarixiy obidalar va muzeylari” (Samarqand 2010) gid ekskursovodlik matnidan qisqartirilib olindi.

Nasafiyning «Kitob al-qand fi tarixi Samarqand», Abulfazl Muhammad ibn Abdujamil ibn Abdumalik Haydar as-Samarqandiyning «Qandiyai Xurd» kabi yuzlab tarixiy asarlarda ma'lumot beriladi. «Samarqand» atamasining ma'nosi xaqida ham tarixiy manbalarda turlicha fikrlar bor. Buyuk tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariy «Devoni lug'atit-turk» asarida «Samarqand» atamasi turkiyda boy, obod shahar degan ma'nolarini bildirishi haqida yozgan. Arab tarixchisi Abu Ali Muhammad bin Muhammad Bal'ami (X asr) «Samarqand shahriga Zulqarnayn bosqinchiligidan 3000 yil ilgari asos solingan» deb yozib qoldirgan. Abu Hafs Najmiddin Umar bin Muhammad an-Nasafiy bu xususda «Qutayba ibn Muslimdan 2250 yil oldin shahar barpo bo'lgan» deb yozadi. Ma'lumki, ko'hna Samarqand xarobalari xozirgi kunda Afrosiyob nomi bilan mashhur. Firdavsiyning «Shohnoma» asarida tarixiy shaxs Afrosiyob Turon o'lkasining podshosi	Kand Fi tarikhi Samarkand” by Abu Xafs Najmiddin Umar Bin Mukhammad an-Nasafi, ”Khandiyayi Xurd” by Abulfazl Mukhammad ibn Abdujamil ibn Abdumalik Khaydar as-Samarkhandi. There are different opinions about the meaning of the term of Samarkand in historical sources. The great linguist scholar Mahmud Kashgari wrote about this in “Devoni Lugati Turkic” that Samarkand means “rich and prosperous city” in the Turkic language. Arabic historian Abu Ali Mukhammad bin Mukhammad Balami wrote “Samarkand was founded in 300 B.C before the invasion of Zulkharnayn”. About this Abu Xafs Najmiddin Umar bin Mukhammad an-Nasafi wrote as followings: “This city was created in 2250s before the period of Kutayba ibn Muslim. As it is generally known, the ruins of ancient Samarkand is famed for the name of “Afrasiyab” nowadays. Historic person Afrasiab was depicted as a king of Turan in “Shakhname” by Firdavsiy.
--	---

sifatida tasvirlanadi. Bu shaxs Avestoda Franrasyan, turkiy manbalarda esa Alp Er To'nga nomi bilan qayd etilgan. Samarqandning shakllanish va rivojlanish davri Afrosiyob yodgorligidan boshlangan. Samarqand Chingizxon qo'shini tomonidan 1220-yil batamom vayron qilingan. Shundan beri qadimiy shahar xarobaga aylangan holda yer qa'rida ko'milib yotibdi. Uning hududi hozirgi shaharning shimoliy qismida bo'lib, 219 gektar maydonni egallaydi. Afrosiyobning eng qadimgi davrlari oid osori atiqalar yodgorlikning shimoliy tarafidan topilgan. Ular miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga mansub mudofaa devori, shahar arkining qoldiqlari, harbiy–ma'muriy markazdan iborat. Ark baland va mustahkam devor bilan o'ralgan. Demak, Afrosiyob miloddan avvalgi VIII-VII asrlarda Zarafshon vohasidagi madaniyati shakllangan markaziy shaharlardan biri bo'lgan. Avesto kitobi va Arxeologik manbalarga ko'ra, Sug'dda davlatchilik miloddan avval VIII-VII asrlarda	Historical person was noted “Fransanyan” in Avesto, and Alp Er Tunga in Turkic sources. Shaping and developing period of Samarkand began from Afrasiab Relic. Samarkand was razed to the ground by Ghengizkhan army in 1220. Since that period this ancient city has been burying as a ruin. Its territory is located in eastern part of the city today and include an area of 219 hectares. Antique objects of the relic which concerned to the earliest time of Afrasiab were founded on eastern side of the city. They consist of the defensive wall bearing on VIII-VII bearing BC, the remains of admistrative-military center. Arch was surrounded with high and stable wall. So, Afrasiyab became one of the central cultural cities in Zeravshan oasis in VIII-VI BC. According to “Avesta” and archaeological sources, organization of the country was formed in VIII-VII BC in Sogd and its capital was Samarkand city. Sogd was depicted as the best
--	---

shakllangan va uning poytaxti Samarqand shahri bo'lgan. Bu kitobda «Sug'd» mamlakat va viloyatlarning eng yaxshisi sifatida ta'riflanadi. Samarqand haqidagi ma'lumotlar qadimgi fors va yunon tarixi manbalarida ham uchraydi. Bulardan eng qadimiysi ahamoniy Doro I va Kserks I tomonidan miloddan avvalgi VI asr oxiri va V asr boshida mixxat uslubida yozdirilgan Behistun va Naqshi Rustam bitiklaridir. Miloddan avvalgi 329-yilda, Aleksandr Makedonskiy o'z qo'shinlari bilan Amudaryodan kechib o'tib, Turon poytaxti Samarqandni zabt qiladi va shu tariqa bu shaxar tarixida yangi bir davr boshlandi. Samarqand buyuk ipak yo'li chorrahasining qoq markazida joylashgani uchun shahar nafaqat savdo sotiq, balki katta ishlab chiqarish va xunarmandchilik markaziga ham aylangan edi. Xitoy sayyoxi Syuan Szyan 629-yili Samarqandda bo'lib uni yerlari hosildor, aholisi ko'p, turli davlatlardan keltirilgan har xil mollarga boy va xunarmandchiligi g'oyat	country and region in this book. Information about Samarkand is found in historical sources of Greek and Persian source, too. The most ancient of them is Behistun and Nakhshi Rustam scripts which were written in mixxat by Akhemeny Doro I and Kserks I at the beginning of VI century and at the end of V BC. In 329 BC Alexander The Great crossed over The Amudarya River. His army invaded Turan's capital and so new period began in the history of the city. Samarkand was not only trade center but also great producing handicraft center because of locating just at the crossing of the Great Silk Road. Chinese traveller Suan Tsang described Samarkand as a center with fertile soil, densely populated, rich in diverse goods which were brought from different countries.
---	--

rivojlangan markaz sifatida tasvirlaydi. Arablar Movarounnahrni fath etgach, ajdodlarimiz islom dinini qabul qilgan. X asr geografi Istaxriy Samarqandni quruqlikdagi bandargohi deb ataydi. IX-XII asrlarda Samarqand Sharq Renessansining beshiklaridan biriga aylanadi. Aynan shu davrda Samarqandda Imom Abu Mansur Motrudiy, Abu Xasan Samarqandiy, Muhammad Nasafiy Samarqandiy, Abu Lays Samarqandiy, Abu Fazl Muhammad Samarqandiy, Abul hakim Samarqandiy va Soʻzani Samarqandiy kabi oʻnlab allomalar ijod qildilar. 1218-yili Chingizxon boshchiligidagi moʻgʻul askarlari Movarounnaxrga yurish boshlaydi. Ular 1220-yilning bahorida Samarqandga xujum qilib, Afrosiyob ulkan xarobazorga aylandi. Moʻgʻullarning 150 yillik istibdodiga buyuk Amir Temur barham berdi. Jomeʻ masjidi, Koʻksaroy, Boʻstonsaroy, Ishratxona, Oqsaroy, Ruxobod, Shoxi Zinda kabi majmualarni bunyod qildiradi. Amir Temur davrida boshlangan	After invasion of Arabians to Movorounnakhr, our ancestors accepted Islamic religion. Geographer Istakhri called Samarkand as a port city. In IX-XII century Samarkand became one of the cradles of oriental renaissance. At that time so many scholars worked there such as Imam Abu Mansur Maturudi, Abu Khasan Samarkandi, Mukhammad Nasafi, Abu Lays Samarkandi, Abu Fazl Mukhammad Samarkandi, Abul Hakim Samarkandiy, Suzani Samarkandi and others. Mogul army marched to Movorounakhr under the leadership of Ghengizkhan in 1218. Afrasiab became ruined city after invasion in spring to Samarkand in 1220. Amir Temur the Great stopped a 150-year Mogul invasion. He commanded to build Jome mosque, Kuksaroy, Bustansaray, Ishratkhana, Aksaroy, Rukhabad, Shakhi Zinda. Mirzo Ulugbek proceeded Amir
---	--

bunyodkorlik ishlari nabirasi Mirzo Ulug‘bek davrida davom ettiriladi. Registon maydonida Mirzo Ulug‘bek madrasasi, Cho‘ponota etaklarida bog‘lar va rasadxona barpo etiladi. Shu bilan birga Mirzo Ulug‘bek rahnamoligida shahar o‘ziga xos ilmiy markazga aylanadi. Shayboniylar sulolasi davri XVI asrda Samarqandda yangi madrasa, masjid va maqbaralar quriladi, ilm-fan rivojida jonlanish seziladi. Ammo o‘zaro taxt talashishlar iqtisodiyot va madaniyat yo‘lida g‘ov bo‘ladi. Abdulloxon II poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko‘chiradi. 1599-yildan boshlab esa Movarounnahrda hokimiyat Ashtraxoniylar sulolasi qo‘liga o‘tadi. Markaziy hokimiyatning zaifligidan foydalangan Samarqand hukmdori Yalangto‘shbiy Bahodir deyarli mustaqil siyosat yurgiza boshlaydi. U shahar obodonchiligiga katta e‘tibor berib, Sherdor va Tillakori madrasalar barpo etadi. Nodir Devon Begi esa Xoja Ahror xotirasi uchun	Temur’s creation work. Mirzo Ulugbek madrasah was built in Registan Square. Gardens and observatories were built at the foot of Chupanota hill. As well as it became scientific center on the guidance of Mirza Ulugbek. A New madrasah, a mosque and a mausoleum were constructed in the reign of Shayboniy dynasty. But mutual quarrels for the throne among governors interrupted economics and cultural life. Abdullakhan II changed the capital from Samarkand to Bukhara. From 1599 years the government of Movorounnakhr passed to the Ashtarkhaniys dynasty. The governor of Samarkand Yalangtush Bakhodir nearly ruled the country efficiently because of weakness of the central government. He built Sherdor and Tillakari madrasahs, taking great consideration to the flourishing of the city. Magnificent madrasahs and other different buildings were erected by
---	---

hashamatli madrasa va boshqa qator binolar barpo qildiradi. Chor Rossiyasi armiyasi Turkiston hududiga bostirib kimgach, 1868-yili Zarafshon okrugini, 1887-yili esa Samarqand viloyatini tashkil etadi Vatanimiz mustaqillikka erishganidan keyin mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi va rahbarligida shahar tarixida tarixiy burilish yuz berdi. Samarqand - buyuk Amir Temur nomi bilan atalgan ordenni birinchi bo'lib olishga sazovor shahardir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1996-yilning 18-oktyabrida shahar bayrog'iga 1-raqamli «Amir Temur» ordenini taqib qo'ydi va 18-oktyabrni «Samarqand kuni» deb e'lon qilindi.	Nodir Devonbegi for the memory of Khoja Akhror. After Russian army's attack to the territory of Turkistan, they organized Zeravshan okrug in 1868 and Samarkand region in 1887. After our independency great historical changes happened under the initiative and leadership of our President in the history of the city. Samarkand was the first rewarded city with "Amir Temur" order. The President Republic of Uzbekistan Islam Karimov wore the order "Amir Temur" to the flag of the city on 18 October in 1996, and the 18th October was declared as "the day of Samarkand"
REGISTON ANSAMBLI	REGISTAN ENSEMBLE
Registon maydoni yer yuzining sayqali deb tan olingan, Amir Temur birlashtirgan 27 (yigirma etti) davlat poytaxti bo'lgan mashhur Samarqandning o'ziga xos va mos bo'lgan ko'zgusidir. «Registon» degan so'z fors tilidan olingan so'z bo'lib, «qumli joy» degan ma'noni bildiradi,	Registan Square is a peculiar and suitable mirror of Samarkand that is recognized as the Face of the earth, and became the capital of 27 countries united by Amir Temur. The word "Registan" is a Persian word and it means "sandy place", namely "reg" means "sand", and "iston" – "place".

«reg»-qum, «iston»-turish joyi demakdir, bu erdan janubiy sharqdan, shimoliy gʻarbga tomon katta ariq oqib oʻtgan, vaqt oʻtib ariq qurigandan soʻng, oʻrnida qumloq joy qoladi. Ana shu asosda «Registon» degan soʻz kelib chiqadi. Asrlar davomida Registon oʻzidagi inshootlarni uch marta oʻzgartirdi. Avvalo Amir Temurning oqila xotinlari Tumanova tomonidan bu erda hashamatli, bosh kiyimlar sotiladigan usti yopiq gumbazli tim quriladi. Ulugʻbek hukmronligi davrida maydonda qaytadan rejalashtirish ishlari amalga oshiriladi. Bu joylar vaqfga topshirilgani uchun bozor timlari boshqa joyga koʻchiriladi. Maydonning gʻarbiy qismida dastlabki bino hisoblanmish Ulugʻbek madrasasi qurildi. Registon hanuzgacha shaharsozlik sanʼatining mukammal shoh asari boʻlib kelayotir. Ana shu mashhur shoh asarlardan original shaklida faqatgina bir Ulugʻbek madrasasi bizgacha etib kelgan. Ansambldagi hozirgi binolar esa	According to historical data and exact scientific materials, through this place the stream run from south-east to north-west, after a few years, it dried out and left lots of sand there. By this way, the word “Registan” appeared. During centuries Registan changed its buildings three times. At first, the magnificent domed bazaar where headdresses could be sold was built by Amir Temur’s clever wife Tumanova. In the reign of Ulugbek, planning put into practice again in the square. Because of giving these places to Waqf (one type of the properties that are owned by religious organizations), the bazaar was moved to another place. In western side of the square Ulugbek madrasah that was recognized as the first building in this place was built. Registan is ever being a perfect masterpiece of town planning art. Only Ulugbek Madrasah from those masterpieces has come to us in original
---	--

ushbu majmuani qayta (muqarrar) tiklash maqsadida XVII asrda shahar hokimi Yalangtush Baxodir tomonidan qurilgan.	shape. The present buildings in the square were built by the ruler of the city Yalangtush Bakhodir in order to rebuild the ensemble in the 17 th century.
Ulug'bek madrasasi (1417 – 1420 йй.)	Ulugbek Madrasah (1417 – 1420)
Registon maydonidagi me'moriy majmuani tarkib topishi, 1417-yilda yosh olim va hukmdor Mirzo Ulug'bekning farmoniga binoan madrasa qurilishidan boshlandi. Madrasa 1417-1420 yillarda qurilgan bo'lib, uning sathi 81x56 m. Bino loyihasining muallifi o'z zamonasining mashhur olimi Qavmiddin SHeroziydir. Madrasa ikki qavatli bo'lib, 55 ta hujra va to'rt burchagida katta darsxonalar va ayvonlardan iborat bo'lgan. Maxsus o'qish uchun belgilangan hujralarda 2-3 tolibi ilmlar o'qigan va yashagan. Har bir xona uch vazifani ijro etgan (o'qish, yashash va alohida qismida kerakli narsalarni saqlash). Darsxonalarda alohida guruhlar uchun fan mashg'ulotlari o'tkazilgan. Ayvonlar yozgi darsxona vazifasini bajargan.	The foundation of architectural ensemble began with building a madrasah in 1417 by the order of young scientist and state ruler Mirzo Ulugbek. The madrasah was built from 1417 to 1420, and its surface is 81x56m. The author of the building's project was a famous scientist of his period, Qavmiddin Sheroziy. The madrasah is two-storey building, and it consists of 55 khujras (cells), classrooms located in the four corners and a terrace. In each individual room 2 or 3 students studied and lived. Every room executed three objects: studying, living, and keeping things in separate parts. Lessons were held in the classrooms for special groups. The terraces executed duties of summer classrooms. Between two classrooms in the west of the madrasah the khonaqoh (the room that was used to

G'arbdagi ikki darsxona o'rtasida, masjid xonaqosi joylashgan. Uning ikkita darsxona, hamda hovli bilan bog'lovchi eshiklari bo'lgan. Ulug'bek qurdirgan ushbu madrasa, o'z davrining ilg'or, barcha sharoitlarga ega mukammal oliy o'quv yurtidir. SHarqdagi birinchi dorilfunun va keng imkoniyatlarga ega ilmiy muassasa sifatida ham katta shuhrat qozondi. Butun dunyoda Ulug'bek akademiyasi sifatida mashhur bo'ldi. Madrasada ta'limi uch bosqichdan iborat bulgan: birinchi bosqich «ando» yoki «past qadam» boshlang'ich bo'limi. Ikkinchi bosqich «avsat» yoki «miyona», o'rta bo'lim, uchinchi bosqich «a'lo» yoki «peshqadam» oliy bo'lim. Iqtidorli toliblar, bu bo'limlarning har birida to'rt-besh yillab qunt bilan o'qishardi. Natijada, madrasada tahsil olib, uni dasturi bo'yicha asosiy fanlarini to'la o'zlashtirgan va imtihon saboqlarida o'z bilimini namoyish qila olgan tolibi ilmlarga: «Sanad- shahodatnoma» yozib berilgan. Madrasada o'qish va	do religious activities) of the mosque is located. It had two doors that linked the classroom and courtyard. The madrasah became an advanced educational institution that had all conveniences in that time. It gained popularity as the first university in the East and an educational centre having all opportunities. It was renowned over the world as the Academy of Ulugbek. The study in madrasah consisted of three stages. The first one was an elementary education that was called “ando” meant “lower step”. The second stage was a secondary education called “avsat” or “miyona”, and the third stage was a higher education and it was called “a'lo” or “peshqadam”. Mighty students studied these stages diligently for 4 – 5 years. As a result the students who studied all programs according to its project and could demonstrate their knowledge were given a certificate that was called “sanad”. Studying and teaching in madrasah were free, and expenses were provided by “Vaqfnoma” (one type of taxes that was gathered
---	--

o'qitish bepul bo'lib harajatlar vaqfnoma orqali ta'minlangan.	from people for religious purposes).
Sherdor madrasasi (1619-1636 йй.)	Sherdor Madrasah (1619 – 1636)
Samarqandda Ashtarxoniylar davrida qurilish ishlari yanada jonlanadi. Yalangtush Baxodirning bevosita tashabbusi va farmoni bilan Registon maydonidagi vayronalikka yuz tutgan hashamatli MirzoUlug'bek madrasasida ta'mirlash ishlarini olib borish, hamda batamom buzilib ketgan Mirzo Ulug'bek qurdirgan xonaqoh Mirzoyi hammomi va karvon saroylari o'rnida ikkita hashamatli inshoot, Sherdor madrasasi (1619-1636 y.y.) va Tilla-Kori madrasa masjidi (1646-1660 y.y.) bunyod etilgan. Sherdor madrasasi sathi 70x57 metr, ya'ni to'rt burchak shakilli bo'lib, hovlisi ikki qavatli hujralar bilan o'ralingan, ularning soni 52 ta, xovlining burchaklarida darsxonalar joylashgan, ammo bu obidada masjid yo'q. Ulkan peshtoq ravog'i tepasidagi timpan diqqatga sazovordir. Qizg'ish zarhal sher, oq ohuni quvib ketmoqda.	During the reign of the Ashtarkhonids in Samarkand the city construction went up. By the initiative and order of Yalangtush Bakhodir the reconstruction was held in Ulugbek Madrasah that was reduced to ruins, and in the places of Mirzoyi Hammomi and caravanserai built by the order of Mirzo Ulugbek, two magnificent buildings, SherDor (1619 – 1636) and Tilla-Kori (1646 – 1660) madrasahs were built. The surface of Sherdor madrasah is 70x57, namely it is in the square shape. The courtyard was surrounded by two-storey khujras (cells), and their numbers are 52. The classrooms were located in the corners of the courtyard. However, there is no mosque in this ancient monument as in Ulugbek Madrasah. The tympanum above central arc of this madrasah is deserving attention. A reddish tiger is pursuing a white

Quyosh bodomqovoq, kiyik ko‘zli doira shaklida tasvirlangan. Uning yuzi esa zarhal yog‘du bilan hoshiyalangan. Butun kompozitsiyasi zangori asosda bo‘lib, firuza va zarhal bo‘yoqlar bilan tasvirlangan, hamda bir - biriga chirmashib ketgan navdalar, ochilib yotgan oq gullardan iborat. Ana shu ajoyib tasvir tufayli u «SHerdor» nomini olgan, baxtiyor zamonga ishoradir.	gazelle. The sun was described as almond-shaped and eyes of deer. Its face was braided with golden light. The whole composition is in blue basis and consists of tree branches wrapped to each other and bloomed white flowers. Because of this great portrayal, the building took the name of “SherDor”. It is an indication to fortunate period.
Tillakori madrasasi (1646-1660 йй.)	Tilla-Kori Madrasah (1646 – 1660)
Yalangto‘sh Bahodir, Sherdor madrasasini qurdirganidan o‘n yil o‘tgandan sung, Ulug‘bek tomonidan qurilgan Karvonsaroyini tiklash imkoniyati bo‘lmaganligi sababli, uni poydevori ustidan yangi madrasa – masjid qurdiradi. U keyinchalik «Tillokori» (Tillo bilan bezalgan) madrasasi, deb atalgan. Tillokorining qurilishi bilan, Registonning ajoyib bir ansambli mukammal shaklga keldi. Ushbu obidaning me‘mori maydondagi hamma binolarning yaxlit bir butun bo‘lishini ta‘minlash uchun Tillokori madrasasini mavjud imoratlarga	Yalangtush Bakhodir, after 10 years from constructing of SherDor, ordered to build a new madrasah-mosque because of not being able to reconstruct caravanserai over its foundation. After a while, it was called Tilla-Kori (covered with gold). By the constructing of Tilla-Kori, Registan came to an exact ensemble shape. In order to make all buildings in the yard the same he adjusted it to the other buildings. The façade, faced to the square is symmetrical and consists of the high portal and two floors of arched niches, flanked with towers.

moslashtiradi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin ushbu yodgorliklarning ta'mirlashga, tarix ko'rmagan darajada g'amxo'rlikni oshganini ko'rib turibmiz. Faqat ana shu qisqa bir vaqtda, Respublikamiz Prezidenti bevosita g'amxo'rligi va Birlashgan Millatlar tashkilotining, Fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi YUNESKO qarori bilan, buyuk munajjim, qomusiy olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bekning 600 yilligi (1994 y.), 1996 yilda, buyuk sarkarda markazlashgan davlatchiligi asoschisi va mashhur davlat arbobi Amir Temurning 660 yilligi yubileyleri munosabati bilan Ulug'bek madrasasining ikkinchi qavati qayta tiklanib, madrasa qadimiy holatiga keltirildi. Sherdor va Tillokori madrasalarida misli ko'rilmagan darajada ta'mirlash ishlar olib borildi.	After gaining national independence we can see increasing of care for reconstructing these monuments and could not be seen in the past. Only during this short period, under care of the President of our Republic, order of United Nations and UNESCO that is occupied with Science and Culture, on the occasion of 600s anniversary of great astronomer, encyclopedic scientist and statesman Mirzo Ulugbek (1994), in 1996 great military leader, founder of centralized country and great statesman Amir Temur's 660s anniversary second stage of Ulugbek Madrasah was reconstructed and reformed historical condition. Very large reconstruction in SherDor and TillaKori madrasahs was done.
---	---